

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOY-IQTISODIY FAKUL'TETI**

**IJTIMOY-MADANIY FAOLIYAT KAFEDRASI**

**MAMADJANOVA MAXLIYO XURSANBEKOVNA**

**O'ZBEK XALQ ERTAKLARI VA ULARDA MILLAT IJTIMOY-  
MAISHIY TURMUSH TARZINING YORITILISHI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Namangan – 2014**

**MUNDARIJA**

**KIRISH**.....3-7

**I bob. Ertak - xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy turi sifatida.**

1.1. Ertak janri haqida tushuncha, uning badiiyati va o'ziga xos xususiyatlari.....8-19

1.2. Ertaklarni ijro etish tartibi va ertakchilik an'analari.....19-27

1.3. O'zbek xalq ertaklari tasnifi masalasiga doyr qarashlar.....27-35

1.4. Xalq og'zaki ijodida qo'shiq va ertaklarning munosabati xususida....35-40

**II bob. O'zbek xalq ertaklarining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni.**

2.1. Ertak – nodir hayotning so'ngsiz osmoni.....41-50

2.2. Ertaklarda maishiy turmush masalalarining yoritilishi.....50-58

2.3. Ertaklarning bola tarbiyasidagi o'rni va roli.....58-69

Xulosa.....70-72

Foydalanilgan adabiyotlar.....73-75

## Kirish

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarimizga boʻlgan eʼtibor kuchaydi. Mustaqillikka erishganidan soʻng Oʻzbekiston oʻtgan yillar ichida mashaqqatli va sharaflı yoʻlnı bosib oʻtdı. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda “Oʻz istiqlol va taraqqiyot yoʻlimiz – bu gul bilan qoplangan yoʻl emas, bu totalitarizm merosidan xalos boʻlish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarnı bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yoʻlidir”, deb aytgan soʻzlari zamirida qanchalik chuqur hayotiy maʼno borligini yana bir bor anglaymiz<sup>1</sup>. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan soʻng xalqimizning sobiq mustabid tuzum davrida toptalgan haq-huquqlari, milliy anʼana, urf-odat va qadriyatlarimiz, oʻzlikni anglash, adolat ustivorligi asosida yashah hayotimiz mezoniga aylandı<sup>2</sup>.

Mustaqillik tufayli oʻzbek xalqining koʻp asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va maʼnaviy merosini oʻrganish, undan xalqning bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yoʻl ochildi. Maʼnaviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaqo xazınasi va taraqqiyot manbai hisoblanadi.

Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi ham maʼnaviy boyligimiz hisoblanadi. Folklor asarlari maʼlum maʼnoda xalq badiiy dahosining izchil tarixiy-tadrijiy rivojini oʻzida mujassam etgan maʼnaviy qadriyat namunasi hisoblanadi. Xalqimizning turmush tarzi, betakror milliy anʼanalari, urf-odatları, tabiat va jamiyatga boʻlgan munosabati folklor asarlarida oʻz aksini topgan. Shuning uchun ham xalq ogʻzaki ijodini oʻrganish orqali ajdodlarimizning dunyoqarashi, maishiy hayoti va anʼanalari bilan bogʻliq koʻpgina maʼlumotlarnı bilib olishimiz mumkin. Zero, haqiqat va real hayotiy voqelik folklor asarlarining yuzaga kelishi uchun asos boʻlgan birlamchi zamin hisoblanadi. Maʼnaviy meros xalqning moddiy boyliklari bilan bir qatorda turuvchi milliy qadriyatlardan biridir. Ana shu milliy qadriyatlarimizning tarkibiy qismlaridan biri – xalqning maʼnaviy boyligi – bu xalq

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2011. – B. 27.

<sup>2</sup> Амалга ошираётган ислохотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти қуриш – ёруғ келажакимизнинг асосий омилидир // Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасини ўраниш бўйича ўқув-услубий қўлланма.. – Т.: Ўқитувчи, 2014. – Б. 7.

ogʻzaki ijodi namunalari hisoblanadi. Xalq ogʻzaki ijodining esa xalqning, millatning jajji vakillari boʻlmish bolalarning begʻubor dunyosini aks ettiruvchi, begʻubor qalbining tarjimoni hisoblanuvchi bir boʻlagi ertakdir.

Yurtimiz kelajagi boʻlmish bolalarning ma'naviy jihatdan yetuk, komil inson darajasida tarbiyalanishlarida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, milliy mafkuramiz gʻoyalarini anglagan holda oʻsishlarida xalq ogʻzaki ijodi namunalarining ham ahamiyati katta. Shunday ekan, kichkintoylar ogʻzaki ijodini toʻplash, tadqiq etish va uni yana oʻzlariga taqdim etish bu kunning, qolaversa, oʻzbek folklorshunosligining oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Oʻzbekistonda yosh avlodni har tomonlama sogʻlom va barkamol ruhda tarbiyalash maqsadida qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu maqsadda “Oʻzbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli “Oʻzbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarori qabul qilindi<sup>3</sup>.

Bolalar hali goʻdakligi davrida ona allasidan orom oladi, nafaqat orom oladi, balki Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «...uning vositasida bolaning koʻngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Ona tilidagi mehr-muhabbat, nasliy tuygʻular va orzular goʻdakning jismu tanida ildiz qoldiradi»<sup>4</sup>. Xalq ertaklari esa ilk ijtimoiy hayot haqida saboq beradi, qoʻrqmas va jasur boʻlib oʻsishida ahamiyatlidir. Ertaklar bolalarni estetik jihatdan tarbiyalaydi, didini oʻstiradi, nafosatga undaydi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ertaklarning folklor asari sifatidagi oʻziga xos xususiyatlarin, hayotiy voqelikning oʻzbek xalq ertaklarida aks ettirilishi, ertaklarning yuzaga kelishi, manbalari va rivojlanish bosqichlari, hayotiy obrazlarning oʻzbek xalq ertaklaridagi talqini, ertaklarning jamiyatda komil insonni tarbiyalashdagi oʻrnini masalalariga alohida toʻxtalingan. Mazkur fikrlar bitiruv malakaviy ish mavzusining gʻoyat dolzarbligidan dalolat beradi.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори // Туркистон. 2014. 8 февраль.

<sup>11</sup> Каримов И. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан кураимиз. 7-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –Б. 114.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Yuqorida keltirib o‘tilan fikrlar ilmiy ish mavzusining g‘oyat dolzarbligidan dalolat berib, bolalar folklor namunalarini to‘plash, nazariy ham amaliy jihatdan tahlil va tadqiq etishdek muhim vazifani belgilaydi. Malakaviy ishning maqsadi ham ana shulardan kelib chiqadi. Ushbu tadqiqot o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- ertaklarning folklor asari sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- hayotiy voqelikning o‘zbek xalq ertaklarida aks ettirilishini tadqiq qilish;
- ertaklarning yuzaga kelishi, manbalari va rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatib berish;
- ertaklarni tasnif qilish va har bir tipga mansub ertaklarning spetsifik belgilarini oydinlashtirish;
- ertaklarning syujet tizimi va motivlar tarkibini o‘rganish;
- hayotiy obrazlarning o‘zbek xalq ertaklaridagi talqinini tahlil qilish.
- ertak namunalarini tahlil etib jamiyatda komil insonni tarbiyalashdagi o‘rnini ko‘rsatish.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** O‘rganilayotgan mavzuning ba’zi jihatlari sovet davridagi adabiyotlarda ko‘rsatib o‘tilgan<sup>5</sup>. Biroq biz mavzuni yoritishda asosan mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlar va maqolalardan foydalandik<sup>6</sup>.

O‘zbek folklorshunosligining yetuk vakillari G‘.Jahongirov<sup>7</sup>, O.Safarov, T.G‘oziboev, M.Murodov, Z.Husainova, K.Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, M.Afzalov, G‘.Jalolov va boshqalarning ishlari mazkur tadqiqot uchun nazariy asos vazifasini o‘tadi. Ertaklar har bir folklorshunos nazaridan chetda qolmagan.

<sup>5</sup> Ўзбек халқ ижоди. Тошкент, «Фан», 1967 йил. Жалолов Ғ. Эرتак ва ҳаёт. – Тошкент.: Ўзбекистон, 1975.- 24 б. Зумрад ва Қиммат. Ўзбек халқ ижоди. - Тошкент.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.- 320 б. Чалпак ёққан кун. Ўзбек халқ эртаклари. – Тошкент.: Юлдузча, 1987.-256 б. Ўзбек халқ эртаклари. 1-жилд. - Тошкент.: Шарқ, 1995.-246 б. Ўзбек халқ ижоди. Ўзбек халқ эртаклари. Гулпарни. Тошкент, 1969 йил. Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик, 1-том, Тошкент, 1980 йил.

<sup>6</sup> Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида сеҳрли рақамлар. - Тошкент, Фан, 1991.-152 б. Юсупов Ж. Хоразм эртаги ва ҳаёт ҳақиқати. - Тошкент.: Фан, 1997.-127 б. Усмонова З.Эртак-новеллаларда конфликт // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 6-сон, 1997 йил. Иброҳимова З.Кичикинтойлар эртакларида бир бадий усул ҳақида ғғ «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 3-сон, 1989 йил. Имомов К.Ўғай қиз типидagi эртақлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 3-сон, 1997 йил. Авазова Ш. Халқ эртаклари чашмаси // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 2-сон, 1990 йил.

<sup>7</sup> Жаҳонгиров Ғ. Болалар эртаклари. Тошкент, 1972 йил. Жалолов Ғ. Ўзбек фольклорида жанрлараро муносабат. Тошкент, 1979 йил. Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фольклори. Тошкент, 1975 йил.

Ertaklar ham uzoq tarixga ega. «Dede qoʻrqut» kitobidan buyon<sup>8</sup> to XX asrning boshlarigacha yuzaga kelgan barcha adabiy, badiiy obidalarida, turli shaklda oʻzbek xalqining qadimiy ertakchiligi oʻz izlarini qoldirgan. Ilk marotaba «Devonu lugʻotit turk»da ertak – «etuk» shaklida ishlatilgan<sup>9</sup>. Shundan keyingi deyarli hamma lugʻatlarda asosan «ertak» soʻzi yozilib kelinadi<sup>10</sup>. Oʻzbek xalq ertaklari Buyuk Karimov, Fattoh Abdullayev, Mansur Afzalov, Komiljon Imomov, Gʻayrat Jalolov, Xudoyberdi egamov, Tojiboy Gʻoziboev, Roʻzimboy Safarov kabi olimlar tomonidan oʻrganilgan boʻlib, ular Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi oʻgʻli, Husanboy Rasul oʻgʻli, Nurali Nurmat oʻgʻli, Rahmon buva kabi oʻnlab ertakchilardan ertaklarni yozib olganlar, tahlil qilganlar va nashrga tayyorlaganlar.

Oʻzbek xalq ertaklarini oʻrganishda rus olimlarining oʻrni ham beqiyos. Jumladan, oʻzbek xalq ertaklari, topishmoqlari, maqol va matallari hamda ogʻzaki teatr namunalarini toʻplash va nashr etishda rus missioneri N. P. Ostroumovning xizmatlari ham salmoqlidir. U bir necha marta oʻzbek xalq ertaklarini nashr ettirdi, topishmoqlar toʻplamini tuzdi. A.N. Samoylovich «Annamurod bobo», «Erni er qilgan xotin» ertaklarini nashr ettirdi. Oʻzbek folklorshunos olimlaridan Buyuk Karimov ham oʻzbek xalq ertaklari ustida samarali tadqiqotlar olib bordi. 1939 yilda «Oʻzbek xalq ertaklari»ni nashr ettirdi. Mazkur kitob ertaklar boʻyicha tuzilgan birinchi yirik toʻplam edi. Folklorshunos K. Imomovning «Oʻzbek satirik ertaklari» (1974) monografiyasida bu xildagi ertaklarning janr xususiyatlari, ulardagi anʻanaviy sinov motivi, komik qahramon, ijtimoiy motiv va konflikt, satirik ertaklarning badiiy xususiyatlari va taqdiri, ertak va doston munosabatlari kabi muhim masalalar yoritilgan. Gʻ. Jalolovning «Oʻzbek xalq ertaklari poetikasi» (1976) monografiyasida esa sehrli-fantastik ertaklarning genezisi va morfologiyasi masalalari tahlil qilinadi. Oʻzbek folklorining ikkinchi epik turi-ertaklar haqidagi birinchi yirik tadqiqot M. Afzalovning «Oʻzbek xalq ertaklari haqida» kitobidir (1964). Mavzuni oʻrganishimizda ushbu toʻplamlardagi ertaklar ham bizga manba vazifasini oʻtadi.

<sup>8</sup> «Ўзбек фольклори» I китоб, Тошкент, 1939, нашрга тайёрловчи Ҳоди Зариф.

<sup>9</sup> Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. 3 томлик.

<sup>10</sup> Абушка, Луғати Навоий, 50-бет.

Namangan bolalar folklori namunalari ham marhum folklorshunos olimlar T.G'oziboyev, M.Murodov, shu bilan birga O.Xolmirzaev va A.Sobirovlar tomonidan to'plangan. T.G'oziboyev tomonidan to'planib, nashr ettirilgan «Gulpari» nomidagi Namangan ertaklari, T.G'oziboyev va A.Sobirovlarning «Namangan xalq og'zaki badiiy ijodi namunalari» kitoblari shular jumlasidandir. Bu ishimizda Namangan bolalar orasida ko'plab uchraydigan ertaklarni tahlil etishga harakat qildik.

Ushbu tadqiqotning nazariy xulosalari va to'plangan materiallari Namangan bolalar ertaklari namunalarini ma'lum darajada o'rganish uchun imkon yaratadi, folklor namunalari poetikasini o'rganishda ahamiyatlidir.

### **Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari.**

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy hamda metodologik asoslarini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ma'naviy qadriyatlar, milliy an'analar va tarixiy xotiraning mohiyati, milliy madaniyatni takomillashtirish va ma'naviy komillikka erishish haqidagi asarlaridagi nazariy qarashlariga suyardik.

Ertaklarning tasnifi va badiiyatini o'rganishda folklorshunoslikda erishilgan ilmiy-nazariy yutuqlarga asoslandik. O'zbek folklorshunosligining yetuk vakillari G'.Jahongirov, O.Safarov, T.G'oziboyev, M.Murodov, Z.Husainova, K.Imomov, T.Mirzayev, M.Jo'rayev, B.Sarimsoqov, M.Afzalov, G'.Jalolov va boshqalarning ishlari mazkur tadqiqot uchun nazariy asos vazifasini o'tadi.

Bolalar folklori namunalari ertaklarni o'rganishda ilmiy bilishning kuzatish, taqqoslash, tahlil etish, umumlashtirish, tarixiylik kabi **tadqiqot usullaridan** foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, xulosa hamda foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I bob. ERTAK - XALQ OG'ZAKI IJODINING ENG QADIMIY, OMMAVIY TURI SIFATIDA**

### **1.1. Ertak janri haqida tushuncha, uning badiiyati va o'ziga xos xususiyatlari.**

Ertaklarning paydo bo'lishida qadimiy urf-odat, marosimlar va miflar hal qiluvchi rol' o'ynagan. Ertaklarning mustaqil janr sifatida qaror topishi olam haqidagi ibtidoiy tushunchalar xayoliy shaklda ifodalangan davrlardan boshlangan. Chunki bu davrlarda aniq voqea va hodisalar, urug` va qabilalar turmushi bilan bog`liq miflar, an`anaviy urf-odatlar o`z kuchi va maishiy vazifasini yo`qotib, kishilar ongida g`aroyib narsa bo`lib anglashila boshlagan edi. Ertak motivlarining dastlabki namunalari ta`limiy-didaktik xarakterda bo`lib, keyinchalik ijtimoiy-maishiy mohiyat kasb etgan.

Hayot haqiqati bilan bog`liq bo`lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g`oya tashuvchi og`zaki hikoyalar ertak deyiladi<sup>11</sup>. Ertaklar epik folklorning eng sermahsul janri. Dunyoning hamma qit'alarida, barcha xalqlarda ertaklar va uning xalq orasida tashib yurgan ertakchilari, uning nazariyachilari – ertakshunoslar bor. O`zbek ertakchiligi ham uzoq tarixga ega. «Dede qo`rqu» kitobidan buyon<sup>12</sup> to XX asrning boshlarigacha yuzaga kelgan barcha adabiy, badiiy obidalarida, turli shaklda o`zbek xalqining qadimiy ertakchiligi, dostonchiligi, qissalari, afsonalari o`z izlarini qoldirgan.

Ertak so`zining qachondan beri aytilishini aniq ko`rsatish qiyin bo`lsa-da, uning juda qadimdan borligi, xalq og`zaki ijodining ilk adabiy janrlaridan biri ekanligi ma'lum. So`zning lug`aviy ma'nosi - aytish, aytmoq, hikoya qilmoq ma'nosini bildiradi. M.Qoshg'ariy o'z «Devonu lug'otit turk» asarida turkiy xalqlarda uning «etuk» atamasi bilan yuritilganini qayd etadi. Unga ko'ra, etuk «biror voqeani og'zaki hikoya qilish»ni anglatadi<sup>13</sup>. Shundan keyingi deyarli

<sup>11</sup> Imomov K. O`zbek xalq ertaklari \ O`zbek folklorining epik janrlari. –T.: Fan, 1981. –B.62-69.

<sup>12</sup> «Ўзбек фольклори» I китоб, Тошкент. 1939, нашрга тайёрловчи Ҳоди Зариф.

<sup>13</sup> Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. 3 томлик.

hamma lugʻatlarda asosan «ertak» soʻzi yozilib kelinadi<sup>14</sup>. Fitrat asarlarida ham ertak deb keltiriladi: “El adabiyotidagʻi hikoyalarga ertak deyiladi. Ertak el shoirlarining xayollari yordami bilan tuzuladi”<sup>15</sup>. Shu sababdan oʻzbek adabiy tilida ham ushbu atama qabul qilingan. Ammo hozirgi kunlarda ham Samarqand, Surxondaryo, Fargʻona viloyatlarining ayrim tumanlarida «matal» ham deyiladi. Namangan viloyatining Janubiy qismida «ertangi» deb yuritiladigan bu hodisa — ertangi boʻlib oʻtgan, qadimgi zamonlardan qilinajak hikoya maʼnosini anglatadi. Viloyatning ayrim tumanlarida ertak atamasi keng qoʻllanilsa-da, bu atama oʻrnida baʼzi joylarda «bayt», «bayti» soʻzlari ham qoʻllaniladi. Buxoro viloyatining baʼzi qishloqlarida ertaklarni - «shuk» yoki «ushuk» nomi bilan ataydilar. Toshkent shevasida ertak «choʻpchak» ham deyiladi. Oʻzbeklar orasida ertak, choʻpchak atamalaridan boshqa yana hikoya, afsona, oʻtirik, tural kabi atamalar ham uchraydi<sup>16</sup>. Alisher Navoiy gʻazaliyotida ertakni «choʻrchak» deb ataydi. Bularning hammasi zamonlar osha xalq orasida tasdigʻini topib kelmoqda. Shu sababdan ham hozirda adabiy atama sifatida ertak va choʻpchak soʻzlari turgʻun boʻlib kelmoqda<sup>17</sup>.

«Ertak» soʻzi «er», aslida «ir» («yir», jir) soʻziga oʻxshatishni bildiruvchi «tak» qoʻshimchasining qoshilishidan tarkib topgan boʻlib, qoʻshiqqa oʻxshash degan maʼnoni anglatadi. Negaki, ertaklarning sajli boshlanmasi qoʻshiqqa oʻxshab ketadi. Shuningdek, baʼzi ertaklar tarkibida sheʼriy qismlar ham uchrab turadi. Bu oʻrinda «Musicha», «Yoriltosh» ertaklarini eslash kifoya. Lekin ertakda sheʼriy parchalar uchrashi odatiy hol emas. Shu sababli ertak xalq nasri namunasi hisoblanadi.

«Ir yo yir» Alisher Navoiy zamonida ham ogʻzaki hikoya yo doston maʼnolarini anglatganki, bu xususda u shunday maʼlumotni yozib qoldirgan:

Ey yirov, sen ham ishingni koʻrguz,

Yotugʻon birla ulugʻ irni tuz.

Navoiy tilga olayotgan «ulugʻ ir» aslida doston boʻlib, uni yotugʻon (hozir doʻmbira) joʻrligida yirov ijro etgan. Yirov yoki jirov hozir ham xalq anʼanaviy

<sup>14</sup> Jahongirov Gʻ. Bolalar ertaklari. –T.: 1972. –B. 7.

<sup>15</sup> Fitrat. Adabiyot qoidalari. –T.: Oʻqituvchi, 1995. –B. 85.

<sup>16</sup> Afzalov M. Oʻzbek xalq ertaklari haqida. –T.: 1964, –B. 19.

<sup>17</sup> Хотамов Н.Т. Адабиётшуносликдан қисқача русча-ўзбекча терминологик луғат. –Т.: 1964. –Б.108.

dostonlari ijrochisini anglatadi. Qolaversa, usmonli turklarda *iztek* va boshqirdlarda hozir qo'llanilayotgan *irtek* istilohi, o'sha tarixiy qatlamni hamon ifodalab turibdi. Rost, boshqirdlarda irtek nasr va nazmdan iborat doston hodisasini bildirgan. Bu Navoiy ta'rifidagi «*ulug' Zoning* doston ekanligini dalillaydi. Navoiy zamonasida «*ir*» dostonni anglatgani bois, u ertak ma'nosida «*cho'rchak*» istilohini qo'llaydi va og'zaki eposga xos bu ikki hodisani farqlaydi:

Habibim husni vasfin uyla muhlik anglakim bo'lg'ay,.

Qoshinda qissai Yusuf bir uyqu keltirur cho'rchak.

Shuni ta'kidlash joizki, Navoiy qo'llagan «*cho'rchak*» istilohi hozir Toshkent muzofotida «*cho'pchak*» va uyg'urlarda «*cho'chek*» shakllarida fonetik o'zgarishga uchragan holda iste'moldadir.

Ertaklarning-paydo bo'lishi haqidagi ba'zi bir mulohazalarimizni aytib o'tsak. Ertak xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, katta-yu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janrdir. Ular juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlarini, marosimlari asosida paydo bo'lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlarini haqidagi orzu-o'ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Ertaklar janr sifatida uzoq muddatli shakllanish jarayonini kechirgan. Ular ibtidoiy odamlarning turmushdagi biror voqeani oddiygina hikoya qilishlari asosida yuzaga kelgan. Davrlar o'tishi bilan hikoya qilish ham takomillashib borgan. So'zga sig'inish, ilohiy kuchlarga sig'inish, animistik, totemistik, fetishistik e'tiqodlar, gallisunatsiya va tush ta'sirida fantastik (taxayyuliy) vositalarga to'lisha borsa, hayvonlarni ovlash, xonakilashtirish, ular inonchlariga ishonish, hayvon mahsulotlaridagina emas, balki kuchidan ham foydalanish jarayonlarida hayvonlar haqidagi ertaklar paydo bo'la boshladi. Asta-sekin shu xildagi ertaklarda turmush tajribasini omuxtalashtira borish, u yoxud bu xildagi qusur va kamchiliklardan kulish ertakdagi obrazlarga majoziylik (allegorik) xususiyatni baxsh etdi. Natijada hayvonlarga oid ertaklar tarkibida majoziy namunalar yuzaga kela boshladi.

Feodal munosabatlar tarkib topib, unda ijtimoiy jarayon takomillasha borgach, ertaklarda ham shu ijtimoiy munosabatlarni ifodalash tamoyili chuqurlasha bordi, natijada hayotiy uydirmalar asosidagi maishiy ertaklar paydo bo'la boshladi. Shu zaylda ertaklar ijtimoiy-estetik hodisa sifatida xalq epik ijodiyotida mustahkam qaror topadi.

Ertaklarda xayoliy uydirmalar asosiy o'rinni egallaydi. Ular o'ziga xos qurilishi bilan ham ajralib turadi. Ertak kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanmadan tashkil topadi. Ba'zi ertaklar «Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir podshoh (yoki cho'pon) bo'lgan ekan», «Sizga bog' bo'lsin, bizga hayot» kabi qisqagina boshlamalar bilan boshlansa, ba'zi boshlamalar ancha uzun bo'ladi. Masalan, mana bu boshlamaga e'tibor bering: «Ertagiyo ertagi, echkilarning bo'rtagi, qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan, ko'k muzga mingan ekan, muruti singan ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, ola qarg'a azonchi, qora qarg'a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to'rg'ay to'qimchi ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo'ri bor. Bir bor ekan, bir yo'q ekan...».

Aksariyat ertaklarda an'anaviy tarzda ertak qahramonlari yor izlab o'zga olamga, o'zga makon va yurtlarga safar qiladilar. Epik qahramon muayyan shartni bajarish, ma'lum yetishmovchilikni bartaraf etish, tushida ko'rgan yoki xabarini eshitgan parini izlab topish maqsadida safarga chiqqanida ko'pincha o'z yorini o'zga yurtdan topadi. Bu motivning muayyan tarixiy asoslari mavjud.

Professor X.Egamovning yozishicha, «ertaklarda eng ko'p tasvirlangan nikoh formalaridan biri ekzogamiya bo'lib hisoblanadi. Ona urug'i davrida urug' a'zolari bir-biri bilan qarindosh hisoblanib, urug' ichida o'zaro uylanishga ruxsat etilmagan. Ularning xotin-qizlari boshqa urug' erkaklari bilan nikohdan o'tganlar... Ekzogamiyaning ta'siri tufayli bo'lsa kerak, xalq og'zaki ijodi, jumladan ertaklarda qahramon ko'pincha urug'dan tashqaridan, uzoqroq yurtdan yor izlab ketadi.

Tushida ko‘rgan yoki rasmini ko‘rgan, birovdan eshitgan qizni qidirib, safarga o‘tlanadi».<sup>18</sup>

Darhaqiqat, o‘zbek folklorining doston, ertak kabi epik janrlarida an'anaviy yor izlash yoki o‘zga urug‘dan uylanish motivining yuzaga kelishi hamda keng ommalashishiga ekzogamiya bilan bog‘liq xalq qarashlari asos bo‘lgan bo‘lib, bu rivoyat janri syujet tizimidagi motivlar silsilasining shakllanishiga ham o‘z ta'sirini o‘tkazgan.

Ma'lumki, epik turga mansub folklor janrlaridan ayrimlarida, masalan, ertaklarda syujetning shakllanishida tilsim bilan bog‘liq lavhalar, motivlar muhim o‘rin tutadi. Tilsim va uning ertak badiiy qurilmasidagi o‘rni haqida K.Imomov shunday yozadi: «sehrli ertaklarga xos sujetlar sistemasida tilsim va tilsimot bilan bog‘liq uydirmalar yetakchi rol o‘ynaydi. Binobarin, uning epizodlari ham tilsim zanjiridan tashkil topgan bo‘lib, asosiy tugun bilan yechim xayoliy tarzda ifodalanadi»<sup>19</sup>.

Ertakdagi qahramonning yo‘l yurishi («safar» motivi), chashma oldida dam olishi (mifologik qarashlarga ko‘ra, chashma hayot daraxtining tubi bilan assotsiatsiyalansa, ertak qahramonlarining chashma bo‘yida dam olish epizodini epik qahramonning yer ostida joylashgan o‘zga makonga o‘tishi motivining epik ko‘rinishlaridan biri deb qarash mumkin), bolta bilan teshaning yo‘qolishi (ertaklarda biror narsa-buyum yoki malikaning raqib tomonidan o‘g‘irlanishi sifatida talqin etiluvchi «yetishmovchilik» motivining epik transformatsiyasi), bolaning yo‘qolgan buyumlarni izlab ketishi va topib kelishi (epik qahramonning o‘zga olamga safari va o‘g‘irlangan narsa, podsho sharti bo‘yicha talab qilingan g‘aroyib buyum yoki parini olib kelishi motivi ) kabi epizodlar ana shunday badiiy elementlar sirasiga kiradi.

Bundan tashqari xalq ertaklaridagi obi hayot suvini ichib tirilish, suv surtilganda so‘qir ko‘zning ochilishi, suv sepganda sehrlanib qolish, suvga tushganda boshqa odamga aylanish kabi an'anaviy motivlar; nikoh suvi ichirish,

<sup>18</sup> Эгамов Х. Совет Шарки туркий халклари эртаклилик анъаналари алоқалари тарихидан очерклар. –Т.: Ўқитувчи, 1980. –Б. 211.

<sup>19</sup> Imomov K. O‘zbek xalq prozasi. - T.: Fan, 1981. -B.12.

arvohlarga kosada suv qo'yish, kelin-kuyovga shirin suv ichirish kabi udumlar, shuningdek, yomg'ir chaqirish va uni to'xtatish marosimlari; suvga tupurmaslik, suvga siymaslik, birovning ustiga suv sepmaslik kabi ta'qiqlar; chashma, quduq va ko'llarni muqaddaslashtirish an'anasi ana shu mifik qarashlar asosida kelib chiqqan.

O'zbek xalq ertaklari, dostonlari, afsona va rivoyatlarida ko'p uchraydigan avliyo obrazning kelib chiqishi to'g'risida folklorshunoslar turlicha fikr bildirishgan. Masalan, M.Afzalovning yozishicha «inson boshiga og'ir ishlar tushganda, turmush azoblari natijasida ezilganda, o'ziga hamroh, rahnamo axtargan. Zulmatdan, qiyin, og'ir kunlardan qutulib, yorug'lik va yaxshi kunlarga erishishni orzu qilgan. Mana shu fantastik rahnamo obrazi keyingi asrlarda islom dinining tushuncha va e'tiqodlari bilan bog'lanib ketdi va ertaklarimizdan joy oldi»<sup>20</sup>. Olim homiy obrazining muayyan hayotiy asoslarga egaligi va islomdan oldingi mifologiya bilan bog'liqligini to'g'ri ko'rsatgan.

Professor G'.Jalolov esa ertak qahramoniga homiylik qiluvchi chol obrazining qadimiy ildizlarini patriarxal davr hayoti bilan bog'laydi. Uning fikricha, «o'zbek xalq ertaklarida bosh qahramonga yo'l-yo'riq ko'rsatadigan, maslahatlar beradigan nuroniy chol obrazi ham ko'p uchraydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, nuroniy chol qahramonlarga eng zarur vaqtda duch keladi... bu chol urug' oqsoqolidir».<sup>21</sup>

Haqiqatan ham qabila, urug' hayotida muhim ahamiyat kasb etgan oqsoqollar o'z maslahatlari, yo'l-yo'riqlari bilan kishilarni hamisha qo'llab-quvvatlaganlar. Ana shu hayotiy voqelik, ya'ni urug' oqsoqoli, qabila sardori, ajdodboshilarning epik talqini ertak va dostonlardagi homiy chol obrazining yaratilishi uchun dastlabki hayotiy asos vazifasini bajargan.

Homiy chol obrazi ertak, doston va rivoyatlarda bir-biriga yaqin mushtarak epik funksiyani bajaradi, ya'ni uning asosiy funksiyasi qahramonga yordam berishi va uni og'ir vaziyatdan xalos qilishdan iboratdir.

<sup>20</sup> Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. –T.: Fan, 1964. –B. 49.

<sup>21</sup> Jalolov G'. O'zbek folklorida janrlararo munosabat. –T.: Fan, 1979. –B. 60-61.

Ertaklar «Qirq kecha-yu qirq kunduz to'y berib, oshlarini oshab, yoshlarini yashab, murod-maqсадlariga yetdilar», «Shu bilan Ayoз podsho bo'lib, o'zining donoligidan xalqni odillik bilan so'rab, mamlakatda adolat o'rnatgan ekan» kabi tugallanmalar bilan yakunlanadi.

Ertakning o'ziga xos xususiyati voqeabandlik, biror voqeani mukammal hikoya qilish tarzida ko'zga tashlanadi. Ertaklar voqelikni hayotiy va xayoliy o'ydirmalar vositasida kishilarda badiiy zavq uyg'otadigan shaklda aks ettirish bilan xarakterlanadi.

Ertaklarning xarakterli xususiyati shundaki, ularda fantaziyaga keng o'rin beriladi, mubolag'a, giperbola kabi tasviriy vositalardan foydalaniladi. E'tibor bersangiz, ertaklarda ijobiy qahramon albatta yovuzlik, adolatsizlik, zulm ustidan g'alaba qozonadi, yaxshilik tantana qiladi. Chunki ertak qahramonlari xalq orzu-umidlarini, manfaatini ifodalaydilar.

Ertak uchun ham xalq og'zaki ijodiga xos barcha sifatlar: og'zakilik, jamoaviylik, an'anaviylik, anonimlik, versiya va variantlilik xosdir.

Ertaklarning janriy tabiati o'ziga xos. Ertaklar xalq og'zaki badiiy ijodiyotining epik turiga mansub bo'lib, o'ziga xos g'oyaviy-mavzuviy yo'nalishga, axloqiy-ta'limiy va ijtimoiy-estetik vazifalarga ega.

Ertaklar ham og'zaki tarzda jamoa ijodi mahsuli sifatida anonim ko'rinishda yaratiladi. Garchi uning to'qilish ibtidosi individual ijodkorga borib taqalsa-da, og'izdan og'izga, urug'dan urug'ga, avloddan avlodga o'tish jarayonida dastlabki ijrochisiga xos belgilarini, obrazlarini, motivlari va badiiy vositalarini deyarli saqlab qoladi. Shu bilan birga, versiya va variantlilik hosil qilishi mumkin.

Har bir xalqning ertagi o'sha xalq tarixini, ma'naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, imon-e'tiqodini boshqa qardosh el-u elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarini, urf-odatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi.

Ertaklar o'z janriy tabiatiga xos badiiy-kompozitsion qurilishga ega. Ular bir xil badiiy shakliy qoliplar doirasida yaratiladi va ijro etiladi. Kirish, boshlama,

tugun, epik sarguzasht va tugallama ertak kompozitsion qurilmasining asosini tashkil etadi.

Ertaklarning an'anaviy kirish bilan boshlanishi jahondagi barcha xalqlar ertakchiligi uchun mushtarak xususiyat hisoblanadi. An'anaviy kirishning vazifasi tinglovchilar e'tiborini bir nuqtaga jalb etish, ertak tinglashga hozirlashdir. An'anaviy kirishlar sujet tabiatiga mos tushadigan xayoliy fon yaratishni, auditoriya, tinglovchilar qalbida ko'tarinki ruh, xushchaqchaq kayfiyat paydo qilishni ko'zlaydi.

Odatda, an'anaviy kirishlar sajlangan nasriy parchalar shaklida bo'lib, zamon va makon haqidagi ma'lumotlarni ifoda etadi. «Gulpari» ertagi kirish qismida bu holatni kuzatish mumkin. «Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, toshbaqa tarozidor ekan, qurbaqa undan qarzdor ekan. Qadim zamonlarda Gulzor degan bir mamlakat bo'lgan ekan. Shu mamlakatda donishmandlikda tengi yo'q chol-u kampir yashagan ekan».

Goho kirish qismi ertakdagi hajviy ruhga ishora xarakterida bo'lishi mumkin: «Taraqa —turuq, omoch-u bo'yinturuq, Shomirzoyi qoqquruq, Boqi charaqi, baroq ko'z darvozaboni, hayhot, og'zingga nowot, siynani siynaga qo'yib, diqqina xap yot, oftobda shayton ko'ndalang, o'rikda maymuntippa-tik, qonimjoninggajippo-jip. Ammo lekin, tomgabekin, zamonlarning zamonida bir podsho bor ekan» kabi.

Kirish qism ayrim hollardagina ertak boshlamasiga ulansa, ayrim hollarda o'zicha mustaqil holda qolaveradi. Ertakda boshlama sujet chizig'ida doimiy element hisoblansa-da, sujet rivojiga aloqador emas, balki harakatning tashkil topishiga turtki bermaydi. U qahramonlar haqida ma'lumot beradi. Sujet chizig'ida sodir bo'ladigan voqea-hodisalarning qaysi zamon va makonda kechajagidan xabar beradi. Boshlama sujet yo'nalishida noaniqlik va umumiylik kasb etadi. «Bor ekanda, yo'q ekan. Och ekanda, to'q ekan. Qadim zamonda bir podsho o'tgan ekan» kabi.

Boshlamalar har gal bir-birini inkor etuvchi muddaoni ifoda etadi. Ularda voqea va hodisalarning bo'lib o'tgan o'rni noma'lum bo'lib, nomi aytilmaydi, ularda

noaniqlik hukmronlik qiladi: «Bir shahar, bir mamlakat» deb ta'kidlanadi, xolos. Sehrli ertaklar boshlamalarida aksaran qahramonlar nomi sir saqlanadi, laqabigina izohlanadi: «Uch og'ayni bor ekan. To'ng'ichining oti — Yulduz sanar, o'rtanchasining oti — Daryo bog'lar, kenjasining oti — Qilich qora ekan».

Ertak boshlamalari ko'rinishiga ko'ra uzun yo qisqa bo'lib, voqeahodisalarning kelajak o'rni va vaqti haqida noaniq, umumiy va mavhum ma'lumot beradi. Ba'zan boshlama ertak voqeligi bilan qo'shib yuborilishi ham kuzatiladi: «O'tgan zamonda uch aka-uka botirlar bo'lib, ular o'z omadlarini sinab ko'rish niyatida uzoq safarga yo'lga chiqibdilar». Bunday holatdagi boshlamalar ertakdagi voqealar rivojining tezlashishiga va keskinlashuviga, ziddiyatlarning kuchayishiga zamin hozirlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, boshlama ekspozitsiya emas, balki unga — ekspozitsiyaga yo'l ochadi, o'rin beradi. Boshlama sujetga daxldor bo'lmay, ertakda sujet ekspozitsiyadan boshlanadi. Ekspozitsiya esa bevosita asarning tuguni bilan aloqador; sujet chizig'ini tashkil etuvchi hodisalar harakati, konflikt va voqealar rivoji ekspozitsiyadan boshlanadi: «U podshoning yolg'iz bir o'g'li bor ekan, — yillar o'tib, podshoning o'g'li ulg'ayibdi. Bir kuni u tushida bir qizni ko'rib, oshiq bo'lib qolibdi». Ayonlashayotirki, podshoning yolg'iz o'g'li borligi aytilishi sujetga harakat baxsh etsa, tushida qizni ko'rishi-tugunni hosil qilgan. Ayni choqda sujet rivojiga — epik sarguzashtga asos bo'luvchi konfliktga ishoraga aylangan.

Ekspozitsiya, asosan, ertak bosh qahramonlarini aniqlaydi, yo'l-yo'lakay ularning axloq-odobi, qiyofasi, xarakter-xususiyati haqida ma'lumot beradi, o'zaro munosabatlarini oydinlashtiradi. Bu jihatdan «To'rabekxonim» ertagi ekspozitsiyasi diqqatga sazovor: «Bir podsho bor ekan, davlat unga yor ekan, qo'shnilari ko'p ekan, yurtdan ko'ngli to'q ekan, eli ko'p obod ekan, oti Odilshoh ekan, adl unga hamroh ekan. Odilshohning dunyoda birgina qizi bor ekan. Uning otini To'rabekxonim der ekanlar. Bu qiz yakka-yagona ekan, oqil-u dono ekan. Kiyim kiysa yarashar, hamma unga qarashar ekan, o'zi ko'p sohibjamol, har kim ko'rsa aqli lol ekan, ko'p kitob o'qir ekan, she'r-g'azal to'qir ekan. Saroyda maslahatchi, maydonda botir jangchi, arg'umoqlar yetolmas, yetib o'tib ketolmas

ekan. To'rabekxonim o'n sakkiz yoshga yetgan, dovrug'i olamga ketgan ekan. Uzoq- yaqin yurtlardan shahzoda-yu xonvachcha — bekdodalar To'rabekxonimni xotinlikka olaman deb, umid bilan kelar ekanlar, lekin To'rabekxonim barini mot qilib qaytarar ekan. Kunlardan bir kuni Marv degan yurtning podshosi To'rabekxonimning ta'rifini eshitib, o'zini ko'rmay oshiq bo'lib qolibdi». Ekspozitsiya ana shu zaylda ertak kompozitsiyasining ma'lum elementi sifatida sujet voqealariga aniqlik va ravonlik baxsh etadi va tugunga ishora tarzida yakun topadi.

Ertak sujetlari xilma-xil bo'lganidek, ulardagi tugun ham xarakter e'tiboriga ko'ra xilma-xil bo'ladi:

Hayotiy ertaklarda tugun hayotiy — real bo'ladi, bosh qahramonning biror malikaga oshiq bo'lishini izohlaydi: «yillar o'tib, podshoning o'g'li ulg'ayibdi. Bir kuni u tushida bir qizni ko'rib, oshiq bo'lib qolibdi». Bunda tushida ko'rilgan qizga oshiqlik hayotiy hodisa bo'lib, tugun uchun asos bo'lgan. Endi o'sha qizni izlab topish jarayoni epik sarguzashtni yuzaga keltiradi va shu asnoda tugun yechimga yuz tutadi.

«Varqa bilan Gulshoh» ertagida esa tugun ijtimoiy tengsizlik negiziga qurilgan» Varqa bilan Gulshoh maktabda o'qib yurganlarida bir-birini sevib qolishgan. Ammo Varqaning otasi kambag'al ekan. Oylar ketidan oylar o'tibdi. Varqa Gulshohni so'ratib podshoga sovchi yuboribdi. Podshoga bu yoqmabdi. Chunki Varqa ham yetim, ham kambag'al.» Tugun hamisha konflikt mohiyatiga ishora xarakterida bo'ladi. Yuqoridagi misolda bu boylik va kambag'allik, podsholik va oddiy fuqarolik, ota-onasining borligi va yetimlik to'qnashuvidan xabar berib turibdi.

Sehrli —fantastik ertaklarda esa tugun xayoliy uydirmalar shaklida namoyon bo'ladi. Bu tipdagi tugun ertakda xayoliy fon yaratadi. Sehrli-fantastik ertaklardagi tugun mazmun-mohiyatiga ko'ra ikki yo'nalishga ega:

Birinchi — oilaviy shart-sharoit bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Bunda o'gaylik motivi hal qiluvchi rol o'ynaydi: «Yoriltosh», «Opa-uka», «Opa-singil», «Oltin beshik», «Shokir va Shakar», «Zumrad bilan Qimmat» ertaklari tuguni

shunday xarakterga ega. Chunonchi, «Zumrad bilan Qimmat» ertagi tuguniga e'tibor qilaylik: «Bir kuni kampir Zumradni yomonlab cholga do'q uribdi. Qizing beodob, ishyoqmas, uni haydab yubor, bo'lmasa, sen bilan bir nafas ham birga turmayman».

Ikkinchisi — sirli yoki dahshatli ko'ringan tabiat kuchlari bilan bog'liq holda tugun yuzaga keladi: «Podshoning qizi qirq kanizi bilan birga tilla taxtda o'tirar ekan. Bir yo'lbars kelib qattiq ulibdi, shunda hammayoq tuman bo'lib ketibdi. Tuman tarqalgandan keyin qirq kanizak qarasa, podshoning qizi yo'q emish».

Satirik va hayvonlar haqidagi ertaklarda ham tugun hayotiy — real bo'ladi va tanqidiy vazifani ado etadi. Chunonchi, satirik ertakda: «Podshoning o'g'li ko'ngli tusagan narsani qilib, aqlsiz o'sibdi»;

Hayvonlar haqidagi ertaklarda: - «Shu ho'kiz qo'shga yaramay qoldi, bozorga olib borib sotib kel, — debdi. Xizmatkor ho'kizni yetaklab bozorga borayotganida, bir daraxtdagi sassiqpopushak «pop-pop» debdi.

— Ha, uka, ho'kiz olasanmi? — debdi xizmatkor. Popushak yana popopladi. Xizmatkor:

— Ikki yuz tangani qachon berasan, ertagami? — debdi-da, ho'kizni daraxtga boylab ketibdi».

Ko'rinayotirki, tugunlarning mazmuniy yo'nalishi ekspozitsiyadayoq ma'lum bo'ladi. Ertak tuguni voqealar rivojini yuzaga keltiradi, natijada sujetning shakllanish jarayoni sodir bo'ladi.

Ertaklarning sujeti, odatda, ikki asosiy qismdan tashkil topadi: birinchisi — bayon qismi, ikkinchisi — sarguzasht qismi. Birinchisida sujet voqealarining rivojini ta'minlovchi asosiy ziddiyatlar aytilsa, ikkinchisida shu ziddiyatlar bevosita ochib beriladi.

Ertaklarning oxirida tugallama keladi, ular ertakning yakuniy qismini ta'riflaydi va hamisha optimistik ruhdagi intiho sifatida xalqning yengilmas ruhi va qudratini namoyish etadi.

Qadimgi zamonlardan og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan ertaklar zamonning o'zgarishi natijasida ro'y bergan yangiliklarni ham o'ziga singdirib boradi. Xalq

ogʻzaki ijodini oʻrganuvchi olimlarning taʼkidlashlaricha, dunyodagi hamma xalqlarda keng tarqalgan janr ertakdir. Sehrli ertaklarning yaratilishida umumiy oʻxshashlik yana ham kuchliroq seziladi. Ertaklarning bu turi qadimdan yaratilganligidan, turli xalqlar maishiy hayotida oʻxshashliklarning koʻpligidan darak beradi. Ammo bu degan soʻz ertaklarda milliylik aks etmaydi, degan xulosaga olib kelmaydi. Chunki ertaklar mavzuidagi qahramonlar ismlarida, muammolarida, maishiy masalalarning ifodasida, tabiat tasvirida, voqealar bayonida, kasb – hunarlar taʼrifida milliy til, milliy ruh alohida aks etadi. Xalq ertaklarining ommaviyligi va yashovchanligini ham asosan ularning ana shu xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

### **1.2. Ertaklarni ijro etish tartibi va ertakchilik anʼanalari.**

Ertak xalq ogʻzaki ijodidagi badiiy nasrning eng qadimiy va ommaviy namunasi hisoblanadi. Bola juda yoshlikdan ertak eshitib oʻsadi. Bolalarni ovutish uchun kattalar ertak aytib beradilar, bolalar ham ulgʻayib, maktabga bora boshlagan vaqtlaridan kichik-kichik ertaklarni oʻzlari ayta boshlaydilar. Bu bolaning bir-biriga aytgan ertaklari qisman kattalardan eshitgani qisman esa oʻzi toʻqigani boʻladi. Yu. Sokolovlar shuni nazarda tutib boʻlsa kerak: «Bolalarning bir-birlariga aytib bergan ertaklari esa, deyarli yozib olinmadi», deb afsus qilgan edilar<sup>22</sup>. Haqiqatan ham toʻplangan xalq ertaklarini aytib beruvchilarni koʻzdan kechirar ekanmiz, aksariyat kattalar tomonidan aytilganining guvohi boʻlamiz.

Ertaklar professional ijrochilikka asoslangan. Oʻtmishda ertaklar yilning maʼlum davrida, belgilangan paytda ijrochilik salohiyatiga ega boʻlgan yoshi ulugʻ, dono, hurmatli va eʼtiborli kishilar tomonidan aytilgan. Ertak aytuvchilarni qadimda «ertakchi», «matalchi» deb atashgan. Odatda, bunday professional ijrochilar ertakchi deb yuritiladi. Xalq ertak aytmoqqa jiddiy qaragan. Epik turning doston, ertak, naql singari janrlariga oid folklor asarlari muayyan epik xotira, epik bilim va ijrochilik salohiyatiga, yaʼni maxsus tayyorgarlikka ega boʻlgan

<sup>22</sup> Б.Сokolов «Поэзия деревни». Руководство для собирателей произведений устной оловестности. «Новая Мосва» 1936.

professional ijrochilar tomonidan aytiladi. Rivoyat va afsonalar esa keng xalq ommasi tomonidan ijro etiladi. Professional aytuvchiga ega bo'lmalik afsona janrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ekanligini qayd qilgan K.Imomov «afsonani faqat professional ertakchi yoki dostonchi aytishi shart emas, balki eshitgan, bilgan shaxs xohlagan formada hikoya qila oladi», - deb yozgan edi<sup>23</sup>. Folklorshunos U.Jumanazarov «professional aytuvchilarga ega bo'lmalik, keng ommaviy ijro xarakteriga ega bo'lish xususiyati afsona va rivoyat janrlarining muhim belgisi ekanligini qayd qiladi<sup>24</sup>.

Folklorshunos M.Jo'raev esa afsona, rivoyat va og'zaki hikoya janrlariga oid matnlarni aytuvchi kishilarning folklor asarlarini ommalashtiruvchi professional ijrochilikka daxli yo'qligini qayd qilar ekan, quyidagi muhim xulosani bayon qiladi: «Ertak, latifa yoki naql ijrochisi o'rni kelganda afsona yoki rivoyatlarni ham hikoya qilaveradi. Ammo ma'rifiy nasr janrlariga (mif, afsona, rivoyat, og'zaki hikoya - U.S.) mansub asarlarni aytuvchi har qanday odam xalq ertaklarini professional ertakchi darajasida maromiga yetkazib aytolmaydi»<sup>25</sup>.

Shu haqdagi nuqtayi nazarini «Ertak ermak emas, ertakchi og'ziga kelganini demas» maqolida ifodalagan. Ertak ertakchi tomonidan yo bir kishiga, yo butun bir jamoaga qarata aytiladi. Bunda aytish mohiyatan ijroga teng. Ertak, umuman folklor namunalarini aytish jarayonlari ham juda qiziq va o'ziga xos. Folklorshunos olimlar B. Karimov, H. Zarifov, M. Afzalov, M. Alaviya, Z. Husainovalarning ma'lumot berishicha, og'zaki ijod asarlarini ijro etishda ijrochilar qat'iy odatlarga amal qilganlar. Xususan, ertak aytuvchilar tinglovchilari yig'ilganidan so'ng o'z oldiga suv, kul, tuproq, isiriq, supurgi, taroq, cho'p va boshqalarni ma'lum tartibda qo'yib ertak aytishni boshlaganlar. Topishmoq aytishda esa g'olib va mag'lub taraflarni belgilovchi shartlar e'lon qilingan. Doston ijrosida Samarqand, Xorazm, Farg'ona, (Namangan) an'analari mashhur bo'lgan. Demak, turli janrlarga oid asarlar ijrosi davomida doimiy ravishda takrorlanuvchi an'analar muhim rol' uynagan. Shubhasiz, folklorshunoslikda

<sup>23</sup> Imomov K. O'zbek xalq prozasi. -T.: Fan, 1991. -B. 67.

<sup>24</sup> Jumanazarov U. Tarixiy voqeyelik va o'zbek folklori. -T.: Fan, 1991. - B.174.

<sup>25</sup> Jo'raev M. O'zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari // O'zbek tili va adabiyoti, 1996, №5. -B.32.

matniy an`analarga e`tibor berish muhimroq hisoblanadi. Biz bu o`rinda doston, ertak janrlariga mansub asarlarning nasriy va nazmiy shakllarini, asar boshlanmasidagi an`anaviy o`rinlarni nazarda tutamiz. Adabiyotshunoslikda obraz yaratish, konflikt badiiy tasvir vositalari kabi tushunchalar etakchi xususiyatlar sanaladi. Xalq qo`shiqlaridan tortib dostonlargacha, maqollardan tortib ertaklargacha obraz yaratish, voqeani bayon qilish, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish kabilar o`ziga xos ko`rinishlarga egadir. Aytaylik, ertakchi tinglovchilar diqqatini qozonmoq uchun ertak mazmuniga mos ruhiy holatlarga kiradi, ertak sirli olamini ta'minlash uchun ovoz jilosiga, yuz va gavda harakatlariga (mimika va pantomimikaga) alohida e'tibor beradi, ertakni baqirib-chaqirib aytmaydi, balki goh shivirlab, goh ovozini ko'tarib, ko'zlarini har xil holatga solib, yumshoqlik bilan samimiy hikoya qiladi. Hayvonlarga xos ovozlarni taqlid qilsa, mifologik obrazlar ovozi vahmkor ohangda bo'lishini ta'minlaydi. Shu taxlitda butun bir ertakni bir o'zi ijro etadi, asardagi ruhiy olamni o'z kechinmalari bilan to'ldiradi va hayajonbaxshligini ta'minlaydi. Shu ijro xususiyatiga ko'ra ertak ijrochiligi xalq yakka aktyor teatrini eslatsa-da, aslida har qanday dekoratsiyalardan va boshqa sahnaviy atributlardan xoliligi bilan undan farq qiladi.

Ishlab chiqarishning dehqonchilik turi yetakchilik qilgan davrlarda ertak, odatda, dehqonlarning dala yumushlari tugagan paytda — kuz va qish mavsumlarida, uzun va zerikarli oqshomlarda aytilgan va bu o'ziga xos an'ana tusini, olgan. Ertakchilik oqshomlari shomdan tonggacha davom etgan. Shundandirki, xalqning o'zi bu hodisani «Doston kunda aytiladi, ertak tunda» degan maqolida maxsus ta'kidlab qo'yishni unutmagan.

Garchi ertak eng qiziqarli nuqtasiga — kulminatsiyasiga kelib qolganiga qaramay, tong otgan zahoti uni aytish to'xtatilgan. Xususan, sehrli-fantastik ertaklar ijrochiligida bunga qat'iy amal qilingan. Sababi — sehrli-fantastik ertaklarda mavjud dev, pari, ajina singari qorong'ulik olamining mavjudotlari yorug'lik olamiga chiqib, insonlarga, ayni paytda ertak tinglovchilariga ziyon-zahmat yetkazishlari mumkin, degan e'tiqod tufayli shunday yo'l tutilgan. Qolaversa, ertaklarga xos sirlilikning yo'qolishidan, uning moddiy hayot qobig'iga

singib ketishidan qo'rqilgan. Shomdan boshlanuvchi qorong'ulik tonggacha hukmron bo'lganligidan ertaklar olamiga xos sirlilikni kuchaytirgan omilga aylangan. Ertakning kechqurun aytilishi an'anasi aslida ana shu asosda qaror topgan.

Boshida faqat sehrli-fantastik ertaklar ijrosiga xos bu taqiq (tabu) bora-bora maishiy-hayotiy ertaklar ijrochiligiga ham qo'llana boshlangan. Bu fikrni «Ming bir kecha» arab xalq ertaklarining afsonaviy ijrochisi Shahrizoda repertuari sifatida mashhur ertaklar silsilasi yaqqol tasdiqlaydi. Zero, Shahrizoda o'z repertuaridagi ham sehrli-fantastik, ham majoziy-allegorik, ham maishiy-hayotiy ertaklarni, asosan, kun botgach aytishni boshlab, tong otgach — ertakning qay o'rniga kelganidan qat'iy nazar, uni to'xtatib qo'ygan.

Ertaklar og'izdan og'izga o'tib, sayqal topgan holda avloddan avlodga yetkazilar ekan, bu jarayonda ular sujetidagi ayrim motivlar, obrazlar tushib qolishi yoki aksincha ko'payib borishi tabiiy. Hatto goho bir xalq ertagiga xos sujet motivlari boshqa bir xalq ertagiga ko'chib o'tishi va buning oqibatida bir necha o'xshash sujetli ertak paydo bo'lishi mumkin. Folklorshunoslikda bunday ertaklar — sayyor sujetli ertaklar deb yuritiladi. Sayyor sujetli ertaklar ko'pincha mazmunan o'zaro o'xshasalar-da, biroq milliy ruh, milliy urf-odat, milliy dunyoqarash, milliy tilga xos ifodaviy vositalar va geografik muhit tasviriga ko'ra farqlanuvchi mustaqil adabiy —og'zaki hodisa sifatida yashash huquqiga ega.

Ertaklarning ayrim qismlari bevosita dramatik harakat yordamida ijro qilinadi. Bunday ijroga amal qilinmasa, ertakning badiiy-estetik qimmatini pasayadi.

Ertaklar ijrosi uch xil usulda tashkil etilishi mumkin:

- a) teatrlashtirilgan shaklda;
- b) deklamatsion shaklda;
- c) ohangga solingan shaklda.

Ertaklarda va ular ijrochiligida tayyor qolipga aylangan an'anaviy formulalar bisyor. Ular o'quvchi va tinglovchini qiziqtirishdan tashqari, voqealarni bir-biriga bog'lashda, uzoqni yaqin qilishda muhimdir. Chunonchi, «Qirq hujra bor, hujraning qirqinchisiga kirma», «Qilichni bir silkitdi, qilich qirq gaz cho'zilbdi»,

«endi so'zni boshqa tomondan eshiting», «shohning qahri kelib, ilonday zahri kelib», «oy desa og'zi bor, kun desa-ko'zi bor, shirindan shirin so'zi bor», «suv ichsa tomog'idan, sabzi esa biqinidan ko'rinadi», «kulsa - og'zidan" gullar sochilar, yursa-oyog'idan tilla sochilar», «yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, tog'-u sahro, cho'l yurib...» kabi an'anaviy qolip shaklidagi ifodalarni istagancha keltirish mumkin.

Ertak ijrochiligining o'ziga xos tabu - taqiq va irimlari bor. Chunonchi, ertakchi ertak aytayotganda eshikni mahkam tambalagan, o'choqqa olov yoqqan, yoniga achchiq va keskir narsalar, shuningdek, non, suv, tosh singari narsalarni qo'ygan.

O'zbekistonning turli joylarida ertakchilik maktablari bo'lgan. Ularda ustoz ertakchilar o'zlariga munosib shogirdlar tayyorlagan. Shogirdini ertak aytish san'atining nozik qirralari bilan tanishtirgan va unga ertak ijrochiligining sir-sinoatlaridan maxsus saboq bergan.

Ertakchilik qadim-qadimdan bor. Mashhur sharq ertakchiligining mumtoz namunasi – «Ming bir kecha» - arab ertaklari yig'indisi dono ertakchi – Shahrizodning tili bilan, «Uyqusiz kechani qisqartirish uchun» aytilgan edi. Yozilganiga o'n asr bo'lgan «Devonu lug'otit turk» da ham maqolchilik, ertakchilikka guvoh bo'ladigan joylar bor: «Ularning bir jarchisi bor, har kun ularga eshittirib turadi»<sup>26</sup> deganda ertak va naqlar nazarda tutilgan. Saroy ertakchilaridan tashqari professional ertakchilar ham bo'lganlar. Ular tili bilan xalqning eng yaxshi ertaklari aytilgan. Bunday ertakchilar shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib xalqning mehr-muhabbatiga sazovor bo'ladilar, to'rga o'tqazib, hurmat-izzat qiladi.

Ertakchilar shunchaki hikoya qilmaydilar. Har bir ertakchi u yoki bu ertakni qayta yaratadi desak, xato bo'lmaydi. Chunki ularning har biri o'zining hikoya qilish uslubi, didi, dunyoqarashiga ko'ra ajralib turadi. Bundan tashqari, ertakchi tinglovchilarning saviyasi va talabiga ko'ra ertakni o'zgartirishi mumkin. O'zbek xalq og'zaki ijodi tarixida ertaklarning badiiy asar darajasiga ko'tarilishi va bugungi

<sup>26</sup> Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. -T.: Fan, 1961. –B. 19.

kungacha saqlanib qolishida o'zbek ertakchilaridan qo'qonlik Hamrobibi Umarali qizi, marg'ilonlik Husanboy Rasul o'g'li, qo'qonlik Nurali Nurmat o'g'li, qashqadaryolik Abdug'ofir Shukurov va namanganlik Hasan Xudoyberdi o'g'li kabilar o'z repertuarlarida ko'plab ertaklarni saqlaganlar, iste'dodlari javohirlari bilan ularni bezaganlar, uzoq yillarning bebaho boyliklarini bizning kunlarimizgacha olib kelganlar. Ular og'zidan yozib olingan o'zbek xalq ertaklarining bebaho namunalari bizga hanuzgacha ma'naviy zavq berib kelyapti. O'zbek adabiyotida xalq ertaklari asosida yaratilgan she'riy, nasriy asarlar teatr va kinoda ham o'z aksini topgan.

Bolalar, ertaklarning yaratilishiga ko'ra yana bir turi — yozma ertaklar ham mavjudki, u jahon adabiyoti, xususan, o'zbek yozma adabiyotining katta qismini tashkil etadi. Keyingi ikki-uch yuz yillikda fransuz ertakchisi Sharl Perro (1628—1703), nemis ertaknavislari Ernst Teodor Amadey Gofman (1776-1822), aka-uka Yakob Grimm (1785-1863) va Velgelm-Karl Grimm (1786—1859)lar, Vilgelm Gauf (1802-1877), daniyalik Hans Kristian Andersen (1805-1875), angliyalik Oskar Uayld (1854—1900), rus ertakchilari A. S. Pushkin (1799—1837) ijodining roppa-rosa o'n yilini faqat bolalar uchun hikmatli hikoyalar va ertaklar yaratishga bag'ishlagan L. N. Tolstoy (1828-1910), K. D. Ushinskiy (1824-1870) yozma ertakchilikni rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar. O'zbek yozma ertakchiligi ham katta tarixga ega. Jadid bobolarimiz Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Siddiqiy-Ajziy o'zlari tuzgan maktab darsliklari uchun ko'plab ibratli ertaklar yaratdilar. O'tgan asr o'rtalarida Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor», «Semurg'», Sulton Jo'raning «Zangori gilam», Shukur Sa'dullaning «Ayyor chumchuq», «No'xat polvon», «Laqma it» she'riy ertaklari, «Yoriltosh», «Afsona yaratgan qiz» ertak-pyesalari, «Kachal polvon» ertak-qissasi mashhur bo'ldi. Adiblarimizning ertakchilik sohasidagi an'analarini keyinchalik X. To'xtaboyev, A. Obidjon, T. Adashboyev, O'. Imonberdiyev kabi ertaknavis mualliflarimiz davom ettirdilar.

Yana bir toifa ertakchilar bor, ular el orasida ma'lum va mashhur emaslar, ammo ular dunyoga endigina qadam bosib kirib kelayotgan, hali aqli ham, xotirasi ham to'lmagan kichik bolalarga ertaklar, cho'pchaklar aytuvchi kattalar, tarbiyachi ertakchilardir. Ularning repertuari ham uncha boy emas, ammo oz cho'pchaklarni, hajman kichik ertaklarni bola yoshiga, bola ongiga yetkazishning ustasi bo'lmish bu ertakchilar hammadan ko'ra sertsir, sersamara bo'lganlar. Bular Aleksandr Pushkinning Arina Rodionovnasi, Hamid Olimjonning onasi – Komila opa, mashhur o'zbek adibi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning bobosi singarilar bo'lganlar. qaysi bir yozuvchini olmang, uning biror badiiyatga boshlagan tarbiyachisi, ilk «ustoz» bor. Ular ko'pincha tarjimai holda yozilmaydilar, ammo ular bor va bo'ladilar. Bizning qahramonimiz ana shu ma'lum va noma'lum «cho'pchakchi» ertakchilardir.

Bularni oila ertakchilari deb atasak bo'ladi. Oila ertakchilarining repertuar mavzui va ularni aytish maneralari shu oila a'zolariga va ularning estetik tarbiyasiga bog'langan, asosan didaktik xarakterda bo'ladi. Bu kichik ertaklar ham soddalikdan, murakkablikka tomon ko'tarilib boradilar. Mavzu jihatdan ham xilma-xil bo'ladilar, ba'zilari hayvonlar haqida, yana birlari odamlar haqida, yoki jonsiz ashyolar haqida bo'lishi mumkin. Bola kichik-kichik ertaklar eshitib, asta-sekin katta ertaklarni eshitishga, uzun, ijtimoiy voqyealarni mavzu qilib olgan – fantastik, sarguzasht-afsonaviy ertaklarni eshitishgacha borib yetadilar.

Bolalar ertaklarini aksari buvilar, enagalar, xolalar aytadilar, ular hayvonlar haqida va shunga o'xshagan bo'ladi, deydi D.Zelenin<sup>27</sup>. N. Ye. Onchukov ham ayollar ertagi yo'qligini, biroq ayollar ertakchiligi borligini ta'kidlaydi<sup>28</sup>. Haqiqatan ham onalar ertaklarning, yor-yorlarning, turli xil qo'shiqlarning ijodchilari, ijrochilaridir. Ular shaharga ish, non qidirib, yoki uzoq joylarga o'roqchilik qilib ketgan erlarining uyda yo'qligini bildirmay, bir parcha non yo bor, yo yo'q, bolalariga bo'lsa yovg'on go'ja, bo'lmasa jiyda, turshak yedirib, uzoq qorong'u

<sup>27</sup> Зеленин Д. великорусские сказки вятской губернии, 1915.

<sup>28</sup> Ончуков Н.Е. Северные сказки. Зап. Геогр. общ. Спб. 1908.

kechalarda, sovuq qish kunlari tanchalar, o'choq-gulxan chetida ajoyib va g'aroyib ertaklarni aytib ovutganlar<sup>29</sup>.

Biz yuqorida umuman ertakchilik, shu jumladan, bolalar ertakchiligi haqida gapirdik, yoshlikdan bolalarga aytiladigan kichik, ajoyib va g'aroyib ertaklar bor, ular professional ertakchilar tomonidan ham, oiladagi tarbiyailar tomonidan ham aytiladi, ijro qilinadi. Ular ko'pincha, hayvonlar haqidagi, sehrli-fantastik ertaklar. Bu ertakchilarning repertuarlari ham turli xil. Ertakchilar kattalarning ertaklaridan bir shingilini bolalarga moslab aytib berishlari mumkin. Bu ko'pincha, oila ertakchilari tomonidan qilinadi. Oila ertakchilari bolalar psixologiyasini bilgan, ularga individual yondashish mahoratini egallagan tarbiyachilardir. Shuning uchun ham ular bolalarning yosh xususiyatlari, o'sha ertak aytilayotgan paytdagi sharoit va eshituvchilar talabiga qarab bir ertakning o'zini cho'zib – kattaroq, yoki kamaytirib – kichikroq ertak qilib aytib berishlari mumkin. Qisqa qilib aytganda, bola go'daklik davridan to o'smirlikgacha ertak eshitadi. O'smirlik davrida esa, u nofaol eshituvchilikdan faol eshituvchi, ba'zilar esa folklor tashuvchiga aylanib qolishlari mumkin. Ya'ni ular o'zlari eshitgan, ehtimol eshitaverib yod bo'lib ketgan ertaklarini kichik bolalarga, ba'zan tengdoshlariga aytib beradigan bo'ladilar. Endi ular ham ertaklarni iloji boricha qo'l va yuz harakatlari bilan aytishga harakat qiladilar, ertak syujetida unutgan joylarini o'zlaricha, «to'ldirib» ketishga, qiyinroq voqea-hodisalarni osonroq osonroq voqealar bilan almashtirishga, ertakdagi ayrim so'zlarni, o'z saviyaidan kelib chiqib, osonroq ekvivalentlari bilan almashtirib aytishga harakat qiladilar. Shu xilda, bolalar og'zida bir necha ertakning o'nlab yangi variantlari yuzaga keladi. Buning ustiga bolalarning ertak repertuarlari kitobiy adabiyotdagi hikoyalar, ertaklar syujetlari hisobiga boyib boradi.

O'n bir-o'n ikki yoshlarida bolaning badiiy didi shakllangan, grammatik nutqi, fikrlash qobiliyati taraqqiy etgan, anchagina ertaklarni o'z so'zi bilan aytib bera oladigan bo'ladi.

---

<sup>29</sup> Jahongirov G'. Bolalar ertaklari. –T.: Fan,1972. –B.27.

Bir soʻz bilan aytganda, ertak insoniyatning begʻubor bolaligi yetishtirgan samaradir. Binobarin, uning taʼrif-u tavsifiga til ojiz, qalam – behol.

### 1.3. Ertaklar tasnifi, badiiyati va oʻziga xos xususiyatlari.

Xalq ertaklari ifodalayotgan voqeligining saviyasiga, gʻoyaviy mazmuniga, obrazlar talqiniga, badiiy tili va uslubiga, voqelikni aks ettirish tarziga, sujet va kompozitsiyasi qurilishiga, bunda xayoliy va hayotiy uydirmaning tutgan oʻrni va vazifasiga koʻra tasnif qilinadi. Shu xususiyatlariga koʻra folklorshunos V.Y.Propp rus xalq ertaklarini sehrlil, novellistik, kumulyativ, hayvonlar haqida va hayotiy kabi besh turga boʻlsa<sup>30</sup>, oʻzbek ertakshunosi M.Afzalov ertaklarni fantastik va realistik turlarga boʻlib, hayvonlar haqidagi ertaklarni fantastik ertaklar tarkibiga qoʻshib yuborsa-da, bu tasnifiga rioya qilmay hayvonlar haqidagi ertaklarni alohida oʻrganadi va shu zaylda oʻzbek xalq ertaklarining uch ichki xilga egaligini eʼtirof etadi: Bularni: a) *hayvonlar haqidagi ertaklar*; b) *sehrlil-fantastik ertaklar* va v) *hayotiy-satirik ertaklar* tarzida ifodalaydi<sup>31</sup>. Uning shogirdi K.Imomov esa ustoz tasnifiga asoslanib, oʻzbek xalq ertaklarini *sehrlil* va *hayotiy* singari ikki turga boʻlib, hayvonlar haqidagi ertaklarni sehrlil ertaklar silsilasida oʻrganmoqni maʼqul topadi. Oʻz navbatida, hayotiy ertaklarni ham jangnoma tipidagi, ishqiy-sarguzasht tipidagi va hajviy kabi uch ichki xilini farqlab koʻrsatadi<sup>32</sup>. S.Jumayeva va Z.Usmonovalarning tadqiqotlari oʻzbek xalq ertaklari silsilasida hayvonlar haqidagi ertaklar alohida guruhni tashkil etishini, shuningdek, novellistik ertaklar ham talaygina ekanligini yorqin tasdiqlaydi.<sup>33</sup> Ana shu mulohazalarga tayanib, hozircha oʻzbek ertaklarining uch ichki turini farqlab oʻrganmoq maʼqul topildi. Bular quyidagilar:

1. Sehrlil -fantastik ertaklar.
2. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
3. Maishiy-hayotiy ertaklar.

<sup>30</sup> Пропп В.Я. Русская сказка Л., 1984, ст. 173,

<sup>31</sup> Afzalov M. Oʻzbek xalq ertaklari haqida. –T.: Fan, 1964. –B.21.

<sup>32</sup> Imomov K. Oʻzbek xalq prozasi. –T.: Fan, 1981. –B.22.

<sup>33</sup> Jumayeva S.Ch. hayvonlar haqidagi ertaklarning genetik asosi va spesifikasi. NDA. –T.: Fan, 1999. –B.29.

**Sehrli-fantastik ertaklar.** Bu tipdagi ertaklar batamom xayoliy uydirma asosiga qurilganligi, ibtidoiy insonning animistik tasavvur-tushunchalarini ifodalab kelishi jihatidan boshqa turdagi ertaklardan keskin farq qiladi. Ularda, M.Gorkiy ta'rificha: «hammadan ham «uydirma» hodisalarni oldindan ko'ra biluvchi tafakkurimizning ajoyib xususiyati ibratlidir. Ularda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan, asar qahramonlari har narsa qo'lidan keladigan mo'jizakor kimsalar («Yalmog'iz», «Devbachcha») yoki jonlantirilgan narsa yoxud hayvonlar («Ur to'qmoq», «Ochil dasturxon», «Semurg'», «Susambil» ertaklari)dan iborat. Bu ertaklarning maqsadi ham turli g'ayriinsoniy illatlar: yolg'onchilik, johillik, ikkiyuzlamachilikni la'natlash, aql-farosatlilik, tadbirkorlik, jasurlik, rahmdillik, ahillik kabi chin insoniy xislatlarni targ'ib qilishdir.

Ertakchilar xayoliy «uchar gilamlar»ni aeroplanlar ixtiro qilinmasdan necha asrlar ilgari, afsonaviy tez harakatlarni parovoz, gaz va elektromotorlar bunyodga kelmasdan birmuncha vaqt ilgari bilgan edi... Insonning ajoyib xususiyatlaridan biri» faraz»ni ham fantaziya, «uydirma» vujudga keltirib tarbiyalagan.»<sup>34</sup> Chindanda, kishilik taxayyuloti bilan yaratilgan oynayyi jahonnamo — televizor, uchar gilam — samolyot, o'zi yurar etik yoki kovush — mashina, poezd, ur to'qmoq — zamonaviy avtomat qurollar tarzida endilikda moddiylashganki, bular qachonlardir xalq fantastikasida yaratilgan sehrlanish hodisasining mo'jizaviy oqibati hisoblanadi.

Sehrli-fantastik ertaklarda voqelik favqulodda shiddatli sirli tusda, g'ayrioddiy muhitda, sehr-jodu ishtirokida, g'ayritabiiy personajlar hamkorligida yuz berishi bilan xarakterlanadi. Ularda voqea yuz berayotgan makon va zamon tilsimli, sirli bo'ladi. Jonsiz narsalar jonlantiriladi va ular insonlardek xatti-harakatda tasvirlanadi. Tabiatdagi narsa-hodisalarni inson qiyofasida tasavvur qilish-*antromorfizn*f deb yuritiladi.

Sehrli-fantastik ertaklarda evrilish fantastik motivi yetakchidir. Shunga ko'ra qahramon sehr-jodu yordamida turli shakllarga kiradi, o'z qiyofasini o'zgartirish imkoniga ega bo'ladi. Ertak qahramonining turli-tuman narsa-buyumlarga, hayvon

<sup>34</sup> Горкий М. Адабиёт хақида. –Т.: 1962. –Б.319.

va parrandalarga aylanishi *metamorfoza*<sup>47</sup> hodisasi sanaladi. Ularda qahramonlar sehrli-tilsimli predmetlar yordamida o'z istak-umidlarini ro'yobga chiqaradiki, buning zamirida ibtidoiy insonlarning magik tasavvur - tushunchalari yotishidan darak beradi.

Sehrli-fantastik ertaklarda dev, pari, jodugar, alvasti, jin singari g'ayritabiiy personajlar-demonologik obrazlar ishtirok etadi. Ular sehr-jodu kuchiga ega, kerakli narsa-hodisalarni, jonivorlarni istagan paytda o'z sehr-u jodusi bilan bordan yo'q, yo'qdan bor qila biladi, ularni o'zi xohlagan qiyofaga sola oladi. Bunday xususiyat Xizr, Simurg', yalmog'iz kampir va ajdar (uch boshli, yetti boshli) kabi mifologik-personajlarga ham xos. Biroq Xizr, Simurg' personajlari hamisha homiy sifatida ijobiy mohiyatga ega. Yalmog'iz kampir esa goh homiy sifatida ijobiy fazilatlar sohibi, goh o'ta shafqatsiz, har qanday razillikdan qaytmaydigan, hatto odamxo'rlikdan huzurlanadigan salbiy personaj sifatida harakat qiladi. Bu personajlarning barchasi ibtidoiy ajdodlarimizning qadimgi mifologik tasavvur-tushunchalarini o'zlarida badiiy modellashtirgan, ibtidoiy insonlarning nafaqat animistik, balki totemistik qarashlarini ham ifodalagan. Bu holni ertak qahramonlariga totem tarzida e'zozlanuvchi ot, bo'ri, qo'chqor, kaptar va boshqa jonivorlarning yaqindan yordam berib, ular g'alabasini ta'minlashlari motivida ko'rish mumkin.

Sehrli-fantastik ertaklarda, albatta, bosh qahramon inson aql-zakovatiga qarshi turuvchi yovuz kuchlar bilan shiddatli va mardonavor kurashib, ular ustidan g'alaba qozonarkan, inson aql-u zakovati-yu kuch-g'ayratining yengilmas qudratini namoyish etadi. Ularda bosh qahramon ertakning boshlanishidan to oxirigacha xayoliy uydirma qobig'ida berilganligi tufayli uning tug'ilishi ham, unib-o'sishi ham g'ayritabiiy holda tasvirlanadi.

Sehrli-fantastik ertaklarning sujeti sarguzasht voqealar tizimidan iborat. Voqealar rivojida tilsim muhim o'rin tutadi. Uch, to'rt, besh, olti, to'qqiz, qirq singari sehrli raqamlar (uch yo'l, uch aka-uka, uch opa-singil, uch kecha-kunduz, yetti pahlavon, yetti pari, yetti kecha-kunduz, yetti bosh; qirq kecha-kunduz, qirq bahodir kabi an'anaviy ifodalar), ur to'qmoq, ochildasturxon, oynayi jahonnamo,

hayot suvi, sehrli olma, uchar gilam, bulbuligo'yo, bir sermaganda qirq gaz cho'ziladigan qilich, sirli sandiq singari jodulangan sehrli predmetlar ertak sujetidagi motivlar yo'nalishini belgilovchi muhim badiiy unsurlar vazifasini o'taydi.

Shuni eslatish o'rinliki, sehrli-fantastik ertaklarning mazmun-mundarijasini tashkil etuvchi motivlar g'oyat ko'p va behad rang-barangdir. Ular orasida ayniqsa, sayohat motivi, sarguzasht motivi, sinov motivi, tush motivi, evrilish, befarzandlik, tasodifiy homiladorlik, keksalikda farzand ko'rish, g'ayrioddiy tug'ilish va ulg'ayish, yetimlik, o'gaylik singari motivlar ko'p uchraydi. Jumladan, ***sinov motivining o'zi ikki xil ko'rinishda:***

a) *topishmoqli sinov tarzida;* qahramon aql quvvatini sinash orqali inson aql-u zakovatini ulug'laydi;

b) *qo'l kuchi-musobaqa sinovi tarzida;* qahramonning jismoniy kuch-qudratini sinab, inson jismoniy kamolotini sharaflashga xizmat qiladi.

***Sayohat motivi esa uch xil jiloga ega***<sup>35</sup>: a) *olamni bilish uchun kengliklarga intilgan qahramon* (yigit yoki uch aka-ukalarning ota-onasidan rozilik olib, yayov yo'lga chiqishi; b) *bosh qahramonning tasodifan biror chuqurlik yo quduqqa tushib ketishi, g'orga kirib qolishi;* v) *bosh qahramonning uchar gilam, uchar etik, oynayi jahon yoki sehrli uzuk vositasida yo'lga o'tlanishi.* Sayohat motivi asosida qurilgan sehrli-fantastik ertaklarda uchar gilam, yog'och ot, uchar etik, supurgi va yo'l azoblarini yengillashtiruvchi sehrli qalpoq, sirli taroq, sehrli qilich, igna, o'q-yoy, hushtak, gavron kabi tilsimli vositalar ishtirok etadi va ular sujetni ham, qahramonni ham harakatga solib turadi.

***Sarguzasht motivi*** ham rang-barang ko'rinish kasb etgan holda sehrli-fantastik ertaklarning jozibasini ta'minlagan. Bular tubandagi motivlardir: a) *uzoq va notanish yurtlarga o'z baxtini izlab yo'lga chiqqan botirning qahramonona sarguzashtlari:* go'zal qayliqqa erishish niyatida sehrli narsalarni sirli va xatarli manzillardan olib kelishi, yo'lda ajdar yoki dev bilan to'qnashib, ular ustidan g'alaba qozonishi va h.k.; b) *uch og'ayni botirlar kechirgan sarguzashtlar;* s) *yetim*

<sup>35</sup> Safarov O., O'zbek xalq og'zaki ijodi. –T.: Musiqa, 2010. –B.211.

*bolalar sarguzashti; d) “mitti polvonlar” yoki «ulkan odamlar» faoliyatiga aloqador sarguzashtlar va h.k.*

Sehrli-fantastik ertaklarning o'ziga xosligi ulardagi personajlarning alohida aniq nom bilan atalmasligida ham ko'rinadi. Zero, bu personajlarning aksariyati biror belgisiga ko'ra laqab bilan ataladi, laqab ularga ko'chma nom vazifasini o'taydi: qilich botir, Kenja botir, No'xat polvon kabi. Bunda ibtidoiy jamiyatda asl nomni yovuz kuchlardan sir tutib himoya qilish e'tiqodi izlari saqlab qolingan. Ulardagi har bir personaj ertakning ham badiiy-estetik, ham kompozitsion qurilmasida muhim o'rin tutadi. Chunonchi, Xizr obrazi ertak yakunida asosiy ziddiyatni bartaraf etishda xizmat qilsa, yalmog'iz kampir, ajdar, dev, pari kabi personajlar asarda ziddiyatlarning kelib chiqishida, voqealarning shiddatkor rivojida, ertak g'oyasi ochilishida - yaxshilikning yomonlik, to'g'rilikning egrilik, yorug'hkning zulmat, donolikning jaholat ustidan g'alabasining ta'minlanishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, humo, simurg' kabi timsollar ham voqealar rivoji sababchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Xullas, sehrli-fantastik ertaklar o'ziga xos badiiy-kompozitsion tizimga-xayoliy uydirmaga, sujet motivlariga, maxsus personajlarga, badiiy til vositalari va uslubiy jilolarga egaligi bilan ajralib turadi va xalq ertaklarining eng qadimiy namunalari sifatida nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi.

***Hayvonlar haqidagi ertaklar.*** Bu tipga mansub ertaklarning yaratilishida ibtidoiy insonlarning qadimgi totemistik qarashlari asos bo'lgan. Ularda hayvonlar yetakchi personajlar bo'lib, insonlar qiyofasida tasavvur etilgan va badiiy jonlantirilgan. Shunga ko'ra ularning sujetida inson obrazi keyingi o'rinda turadi, ko'p hollarda voqelikka inson aralashmaydi. Binobarin, ular yaratilish maqsadi, mazmun-mohiyati jihatidan bir necha ichki turga ega:

1. *Etiologik ertaklar.* Bularda u yoki bu hayvon shakli, belgi-xususiyatlari haqida ma'lumot berish yetakchi motivdir.
2. *Sof hayvonlar haqidagi ertaklar.* Bularda insonlarga naf keltiruvchi hayvonlar madhi yetakchi motivga aylangan.

3. *Majoziy (allegorik) ertaklar.* Bularda insonlarga xos qusur va kamchiliklardan hayvonlar fe'li va xatti-harakati timsolida tanqid qilish, fosh etish yoki kulish yetakchi motiv darajasidadir.

***Etiologik ertaklar*** nisbatan qadimiyroq bo'lib, hayvonlarni bevosita kuzatish, ularning har bir turiga xos belgi-xususiyatlarni aniq bilish va farqlash negizida paydo bo'lgan. Xususan, ibtidoiy jamiyatning ovchilik bilan shug'ullangan bosqichida hayvonlarni kuzatish, ularni bir-biridan farqlash, vahshiy hayvonlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish hayotiy ehtiyojga aylangan. Shu ehtiyoj zaminida yaratila boshlangan etiologik ertaklar hayvonlar, parrandalar va hasharotlarning shakli-shamoyili, fe'li, rangi va qiyofasi haqidagi ma'lumotlarni ifodalashi jihatidan axborot beruvchi mohiyat kasb etgan.

Ibtidoiy inson sher, bo'ri, ilon kabi o'ziga zarar yetkazuvchi yirtqich hamda ot, ho'kiz, buqa, echki, qo'chqor, xo'roz singari o'ziga naf keltiruvchi jonzotlarni goh o'zidan kuchli bo'lganidan, goh og'irini yengil qilishga asqotganidan himoyachi sifatida anglab, ularni ulug'lovchi ertaklar yaratgan.

***Sof hayvonlar haqidagi ertaklar*** hayvonlar timsolida yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasini sharaflash motivi yetakchi unsurga aylangan.

Ibtidoiy jamiyatning ovchilik bosqichidan chorvachilik bosqichiga o'tilgach, insonlarning hayvonlar dunyosiga oid qarashlari birmuncha o'zgargan. Inson o'zini hayvondan farqlab, o'zining ulardan kuchliligiga ishonch hosil qilgach, hayvonlar fe'l-atvori vositasida o'z qusurlaridan kula boshlagan. Natijada inson o'z aql-u farosati orqali hayvonlarni bo'ysundirib, o'z yumushlarini yengillashtirish maqsadida turli-tuman mehnatga jalb etishi, ular vositasida kurashlarda yengib chiqishi ertak voqeligiga aylana borgan.

Sinfiy jamiyat hukmronligi qaror topib tobora chuqurlasha borgani sayin hayvonlar haqidagi ertaklarning g'oyaviy motivlari ham o'zgara borgan. Inson mehnati inson tomonidan qadrsizlantirilgan sinfiy jamiyatda hukmron tabaqaning jabr-zulmidan qo'rqqan mazlum xalq o'z dilidagi noroziligini ayrim kuchsiz, ojiz hayvonlarning qonxo'r, yirtqich, ochko'z hayvonlar bilan munosabati shaklida yashirin badiiy ko'rinishda — majozan ifodalash orqali mavjud ijtimoiy-siyosiy

munosabatlar mohiyatini ko'rsatishga moyillik kuchaya borgan. Natijada *majoziy (allegorik) ertaklar* paydo bo'lib, ertakchilikka tanqidiy yo'nalish kirib kelgan. Majoziy ertaklardagi hayvon obrazlari ko'chma ma'nodagi personajlar bo'lib, ular xuddi insonlardek xatti-harakatda tasvirlanadilar: o'ylaydilar, gapiradilar, jabr-zulmga norozilik bildiradilar, yaxshilarga-yaxshilik, yomonlarga-yomonlikni tilaydilar.

Bo'ri, tulki, sher, quyon, qo'zichoq, echki, qo'y, ho'kiz, xo'roz, it kabi hayvonlar majoziy ertaklarning doimiy allegorik personajlari hisoblanadilar. Ularning har biri o'ziga xos fe'l-atvori bilan ertak tarkibidagi ma'lum estetik vazifani, g'oyaviy maqsadni ochirishga xizmat qiladi. Chunonchi, sher-hayvonlar shohi, eng kuchli jonzot. U ko'pincha zolim va qonxo'r podsho timsolini ifodalasa, bo'ri — aqli kalta, nodon, laqma, zo'ravon saroy amaldorlari qiyofasida harakat qiladi. Tulki esa ayyor, firibgar, aldamchi, faqat o'z manfaatini ko'zlab yashovchilarning tipik qiyofasini ifodalovchi majoziy obraz bo'lsa, ilon - ichi qora, niyati buzuvchi, tilyog'lama va sovuqqon kishilar timsolida qo'llanadi. Qarg'a - donishmand, tadbirkor; quyon — qo'rqqoq; xo'roz va echki - dono; ho'kiz - mehnatkash, chidamli; it — vafodor, qo'riqchi; ot — eng vafoli hamdam, yoqimli va sadoqatli do'st; eshak — farosatsiz kishilar sajiyasida obrazlantiriladi. Ko'pincha uy hayvonlari — ijobiy, yovvoyi va yirtqich hayvonlar — salbiy sajiyalarda majoziylashtiriladi.

«Och bo'ri» ertagida bo'ri aqli kalta, nodon, laqma ko'rinishda talqin qilingan. U bir kuni xo'rozni ushlab olib, uni yemoqchi bo'libdi. Xo'roz esa unga meni piyoz va kashnichsiz esang, maza qilmaysan, debdi. Bu gapga ishongan bo'ri xo'rozni shu yerda qoldirib, piyoz bilan kashnich qidirib ketibdi. Xo'roz bundan foydalanib qochib qohbdi.

Bo'ri yana yo'lida qo'zichoqqa duch kelib, uni ham ushlab olibdi va yemoqchi bo'libdi. Qo'zichoq esa meni tuzsiz yeb bo'lmaydi degancha bo'rini chalg'itib, qochib ketibdi. Bo'ri tuz axtarib ketar ekan, otga duch kelibdi va uni ham yemoqchi bo'libdi. Ot bo'riga: «Otam o'lmasdan avval tuyog'imga bir nasihatnoma yozib qoldirgan edi, Shu nasihatnoma senga tegishli, sen shuni o'qib olib, so'ngra

meni yeya ber», — debdi. Laqma bo'ri otning gapiga ishonib, uning tuyog'i ostiga engashibdi. Shunda ot qattiq tuyoqlari bilan bo'rini boplab tepibdi. Bo'ri til tortmay voqea joyida o'libdi. Uning laqma va nodonligi boshiga falokat keltiribdi.

Siyosiy-ijtimoiy munosabatlarni aks ettirish maqsadida yaratilgan majoziy ertaklarda satira ustivor pafos darajasiga ko'tarilgan.

Hayvonlar haqidagi ertaklar dramatik ijroga asoslangan;

professional ijrochilar tomonidan hayajonli qilib aytib beriladi. Aytish jarayonida ijrochi ertakdagi hayvon - personajlarning turfa harakatlari va ovozlari taqlid qiladi, ertak tarkibidagi she'riy-parchalar bo'lsa, ularni kuyga solib ijro qiladi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar o'tmishda axborot berish maqsadida kattalarga aytilib kelingan bo'lsa, XX asr o'rtalaridan e'tiboran kattalar tomonidan bolalarga aytiladigan bo'ldi.

***Maishiy-hayotiy ertaklar.*** Bu ertaklarning mazmuni bevosita real hayotga bog'liqdir. Ularda real ijtimoiy voqelik hayotiy uydirma asosida tasvirlanadi, hayotiy real kishilar bosh qahramon bo'lib keladi. Maishiy-hayotiy ertaklar ortiqcha uydirmalardan deyarli xoli bo'lib, ularda ayrim hollardagina fantastik detallar uchrashi mumkin.

Maishiy-hayotiy ertaklarda voqelik makoni aniq shahar yoki qishloqda kechadi, aniq qahramon ishtirokida yuz beradi. Ular mazmun-mundariyasi va g'oyaviy yo'nalishi, obrazlariga ko'ra sehrli-fantastik va hayvonlar haqidagi ertaklardan farq qiladi. Ularda aniq shaxsning o'z aql kuchi, tadbirkorligi, chidam va matonati, yuksak insoniy fazilatlarini tufayli murod-maqsadiga yetishuvi ko'rsatib beriladi. Shu sababli maishiy-hayotiy ertaklar sujetini ijtimoiy-maishiy mazmundagi voqelik tashkil etadi. Ularning aksariyatida jamiyatdagi ijtimoiy kamchiliklar, nosozliklar, mehnat ahlining hukmron tabaqa vakillaridan noroziligi umumlashma obrazlarda ochib beriladi. Bunday ertaklarning aksariyati tanqid qilishga asoslanganligi tufayli shartli ravishda hajviy ertaklar deb yuritiladi<sup>36</sup>. Biroq aytish joizki, maishiy ertaklarning barchasi ham tanqidga asoslanmagan, shu

<sup>36</sup> Safarov O., O'zbek xalq og'zaki ijodi. –T.: Musiqa, 2010. –B.212.

vajdan bunday ertaklar o'zbek folklorshunosligida shartli ravishda tanqidga asoslangan ertaklar tarzida yuritiladi.

Hajviy-maishiy ertaklar asosida o'tkir satira yoki zavqbxash kulgi (yumor) — yotadi. Bunday ertaklar hajman ixcham, mazmunan lo'nda bo'ladi.

Satirik ertaklar yumoristik namunalarga nisbatan ko'proqdir. Ular sinfiy munosabatlar keskinlashuvi sharoitida yaratilgan. Bu xildagi ertaklarning o'z qahramonlari bor. Bular - Kal, kambag'al sodda dehqon va dono qiz, Ko'sa va boshqalar, ular ko'p hollarda kamsitilganlarning umumlashma siymolari. Bu safda No'xatpolvon ham bor. Bu personajlar hajviy-maishiy ertaklar tarkibida ko'p holatlarda xasis boy, ochko'z, savodsiz qozi, zolim podsho, berahm qaroqchi singari hukmron tabaqa vakillariga zid qo'yilib tasvirlanadi.

Hajviy-maishiy ertaklarda ko'chma ma'noli savol-javoblar, topishmoq aytishuvlari, so'z o'yinlari shaklida qurilgan dialoglar asosida raqib tarafning kamchiliklari ochib tashlanadi. Ularda personajlarning portretini tasvirlashga alohida e'tibor qilingan, aniqrog'i, sajiyasining ijobiymi yoki salbiyligiga qarab uning portreti chizilgan.

Satirik ertaklarda ko'p hollarda sinfiy ziddiyatlar ifodasi kengroq mavqeda turadi.

Ertaklar xalqning necha-necha ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribalarini umumlashtirgan holda uning ijtimoiy ongida, estetik didida, axloqiy qarashlarida, e'tiqodida kechgan o'sish-o'zgarishlarning badiiy tarixi sifatida ayricha ahamiyat kasb etgan. Shu bois hozir ham miriqib tinglanadi, sevilib o'qiladi, eng muhimi, navqiron avlodning ma'naviy-axloqiy kamol topishida beqiyos ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

#### **1.4. Xalq og'zaki ijodida qo'shiq va ertaklarning munosabati xususida.**

Xalq og'zaki lirik merosi qo'shiqlar bilan ertaklarning munosabati, xalq ertaklarida qo'shiqlarning umuman she'riy parchalarning qo'llanilishi, ularning ertaklar mazmuni va shaklida, timsollar xarakterini ochishdagi o'rni va vazifasini

tahlili etish aktual masalalardan biridir. To'g'ri, ayrim ertak matnida kichik-kichik she'lar uchrab turadi. Ammo bunday ertak namunalari juda kam bo'lib, ertakchilik haqidagi tasavvurlarimizga alohida ta'sir ko'rsatmaydi.

Ertak va qo'shiq xalq og'zaki poetik ijodiyotining ikki keng tarqalgan, sevimli janrlarning o'zaro munosabatlarini, aloqalarini yoritish lozim. Qo'shiqlar ertaklarning xillariga ko'ra ba'zilarida ko'p va ba'zilarida kam qo'llaniladi.

"Qo'shiqlar ertaklar syujetida maqol va topishmoqlar singari hal qiluvchi, voqyealarini birlashtiruvchi vazifani o'tamaydi, ularining emotsional xususiyatlarini kuchaytirish, badiiy tasvir kuchini oshirish, xarakterlar va harakatlar holatini atroflicha, yuksak badiiy vositalarda ifodalash, xarakterlar orasidagi munosabatlarni dialog (lapar kabi) formasida bayon etish, qahramonlarning lirik holat, kechinmalarini ochib berish uchun qo'llaniladi"<sup>37</sup>. Ertaklarda ishlatilgan qo'shiqlarning ma'no, mazmuni ertak syujetiga bo'ysunadigan, ifodalanayotgan voqyea mazmuniga tobe bo'ladi. Shuning uchun ularning o'rnini almashtirib, bir yerdan boshqa yerga, bir voqyea tasviridan uzib olib, boshqasining bayoniga kiritib yuborish mumkin emas. Demak, qo'shiqlar bir motivdan ikkinchisiga o'tib yurish xarakteriga ega emaslar. Ertaklarda ishlatilgan qo'shiqlarning ma'nosi tasvirlanayotgan voqyea, holat, xarakterning xususiyatlari bilan bog'liq holda, shu o'rindagi ifodalangan mazmun, ma'no bilan bog'liq holda bo'ladi. Demak, ma'lum matn ichidagi qo'shiq shu o'rindagi ma'no, mazmun o'ttenkasi bilan tushunilmog'i lozim.

Masalan, «Tulki, xo'roz va echki»<sup>38</sup> ertagi va bu ertak tarkibidagi qo'shiq namunalariga e'tiborni qarataylik. Tulki, xo'roz va echki do'stlashib qolishadi va buni nishonlash maqsadida osh qilib o'tirishmoqchi bo'lishadi. To'planishib endi oshni damlab qo'yishgan mahal eshik taqillab qoladi. Xo'roz chiqib qarasa, yo'lbars ekan. Uni izzat-hurmat bilan kutib olishadi. Bu tabiiy, chunki yo'lbars o'rmon podshohi ekanligini biz bilamiz. Mana shu jihatdan ertakda mantiqiylik saqlangan. Ertakning uch qahramoni oshni bergilari kelmay, qizg'ongan

<sup>37</sup> Jalolov G'. O'zbek folklorida janrlararo munosabat. -T.: Fan, 1979. -B.133.

<sup>38</sup> G'oziboev T., Sobirov A. Namangan xalq oqzaki badiiy ijodi namunalari. Namangan, 1993, 71-bet.

taqdirilarida ham yo'lbarsga qarshi bora olmaydilar, ya'ni uyga kiritmaslikni iloji yo'q. Endi nima qilib bo'lsa-da, yo'lbarsga osh yedirmay ketkazib yuborish kerak. Mana shu o'rinda ayyorlik va mug'ombirlikda teng kelib bo'lmaydigan tulki timsoli yordamga keladi. Demak ertakdagi tulki timsoli ham tasodifan tanlanmagan. Chunki ertakdagi tulki bajargan harakatni xo'roz yoki echki bajara olmaydi. Bajargan taqdirda ham, ularning xarakter- xususiyatiga mos kelmaydi.

Noiloj yo'lbarsni uyga taklif etishdi, lekin hali oshni pishishiga vaqt bor. Shunda tulki echkiga:

- Echkvoy, childirmangni qizitib mehmonga ber, osh pishguncha bir ashula aytib o'tiraylik,- debdi. Echki childirmani qizitib yo'lbarsga beribdi.

Yo'lbars childirmani chalib:

Childirmani chalaman,

Bo'lib xushvaqt, o'rgilay.

Echki xo'roz osh qilar,

Bo'lgay ovqat, o'rgilay.

deb ashula qilibdi. Keyin navbat tulkiga kelibdi. Tulki ham vaziyatdan foydalanib qolish maqsadida ichidagi asl muddaosini qo'shiqqa solib:

Yo'lbarsdek mehmonimiz,

O'tkir tovush, o'rgilay.

Terisi Boltaboyga,

Bo'lar kovush, o'rgilay.

deb kuylabdi. Yo'lbars o'ylabdi, bular aytgan Boltaboy zo'rmikan, mening terim unga kovush bo'lsa, deb uydan chiqib qochib ketibdi. Xo'roz uning orqasidan qichqirganicha qolibdi.

Bu o'rinda tulki «kosa tagida nim kosa» tarzida ish yuritgan, ya'ni fikrini qo'shiq matniga qistirib yuborgan. Agar qo'shiq matnida ifodalab ketmaganda, yo'lbarsga to'g'ridan-to'g'ri «Sen Boltaboyga kovush bo'lasan» deb ayta olarmidi? Albatta, yo'q. qo'shiq misralariga e'tiborni qaratsak, tulki birinchi va ikkinchi misralarda yo'lbarsning ovozi kuchli, o'tkir ekanini aytib, uning ko'nglini

ko‘tarib oladi va uchinchi, to‘rtinchi misralarda beixtiyor o‘z dardini tulkiga xos makkorona usulda qo‘shib ketadi.

Tulki aytgan qo‘shiq mazmuniga yaxshilab nazar tashlaydigan bo‘lsak, qo‘shiqdagi ayrim so‘zlar ma‘no nozikligi jihatdan ikki xil mazmun ifodalaganini anglash mumkin. Ya‘ni birinchi ma‘nosi «yo‘lbars agar shu yerda oshning pishishini kutib o‘tiraversa, Boltaboyga aytamiz, u yo‘lbarsni ov qilib terisini kovush qilib kiyadi», bo‘lsa, ikkinchi ma‘nosi «yo‘lbars kuchli hayvon, uning ovozi ham o‘tkir, terisi ham baquvvat. Shuning uchun, hattoki kuchli Boltaboy ham uni kiyib yirtolmaydi», deganidir.

Agar yo‘lbars qo‘shiqdan norozi bo‘lib, tulkiga tashlangan vaqtda ham, u qo‘shiqni ikkinchi ma‘nosini aytib berib vaziyatdan chiqib ketishi mumkin.

Tulki hayvonlar ichidagi ayyor, mug‘ombir va shu bilan birga eng tadbirlisi hisoblanadi. Shu sabab ham mazkur ertakda xo‘roz va echki timsollari bilan bir qatorda tulki timsoli ham kiritilgan.

Ikki tomondan qaraganda, ikki xil ma‘no ifodalay oladigan qo‘shiqni esa faqatgina tulki topib ayta olishi mumkin. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tulki kuylagan qo‘shiqda so‘z o‘yinidan ham ustalik bilan foydalanilgan.

Tulki qo‘shiqda ifodalamoqchi bo‘lgan fikridan bexabardek, yo‘lbarsning ortidan yana quyidagicha qo‘shiq kuylab qoladi:

Yo‘lbarsday mehmonimiz,

Qildi araz, o‘rgilay.

Orqasidan qichqirib,

Qoldi xo‘roz, o‘rgilay.

«Aqlli echki»<sup>39</sup> nomli ertakda ham xuddi yuqoridagi kabi ishnining ko‘zini bilish va ustamonlik tufayli og‘ir vaziyatdan oson chiqib ketish holat kuzatiladi.

Taqdir taqozosiga ko‘ra xo‘jayinning buyrug‘i bilan echki, ho‘kiz, buzoq ko‘chaga haydab yuboriladi. Ular yo‘l yurib, kech tushgach, bir manzilga yetib borishadi. Kechki salqin tushgan, yopinib uxlash uchun biror narsa kerak. Yon-

<sup>39</sup> G‘oziboev T., Sobirov A. Namangan xalq oqzaki badiiy ijodi namunalari. Namangan, 1993, 71-76-betlar.

atrofni qarab, bir arslon va bir sherning terisiga ko'zlari tushibdi. Arslonning terisini ho'kiz, sherning terisini buzoq yopinib yotibdi. Shu payt o'lja qidirgan bo'rilar kelib qolibdi va echkini yemoqchi bo'lishibdi. Shunda echki:

- Men sizlarga nasib bo'lsam, yesangizlar roziman, faqat menga bir ashula aytib bersangizlar bas, - deb javob beribdi. Shunda bir bo'ri:

- Bu turishingdan sen ashulani yaxshi bilasan shekilli, sen oldin aytaqol, - debdi. Echki darhol ashula boshlabdi:

Yo'lda arslon terisini shilib olgan edik,

O'tlab yurib bir sherning terisini shilib olgan edik.

Bu yerda uchta teri tayyor ekan.

Bo'ri qarasa, haqiqatan ham arslon va sherning terisi turibdi. Yonida ikkita sherigi, o'zi bilan uchta bo'ri turgan ekan. Arslon bilan sherning terisini shilgan, biz nima degan deb, uch bo'ri darhol qochib ketibdi.

Mazkur ertakda ham xuddi avvalgisi kabi echki o'z fikrini to'g'ridan-to'g'ri emas, qo'shiq orqali bayon qilgan. Bundan to'g'ri xulosa chiqargan bo'rilar o'z yo'llariga ravona bo'lishibdi, aksincha echki aqlli bo'maganda bo'rilarga yem bo'lishi muqarrar edi.

Ertaklarni aytish jarayonida usta san'atkor, professional ertakchilar ijrosi jonli, ta'sirchan bo'ladi. Ular obrazlar timsoliga kirib, voqyealarga berilib, turli-tuman harakatlar bilan ertak mazmunini bayon etishlari bizga ma'lum. Mana shu ijro jarayonida ertak syujetida xalq qo'shiqlari mavjud bo'lsa, ular bu qo'shiqlarni kuyga solib, ta'sirli qilib aytadilar. Natijada ertakning eshituvchilariga ta'sir kuchi, tarbiyaviy ahamiyati va xotirada qolishi ta'minlanadi.

Shunday qilib, xalq og'zaki ijodi yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, beshta o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar og'zaki ijod asarlarini yozma adabiyotdan va ayni chog'da xalq ijodini san'atning boshqa turlaridan farqlab turuvchi belgilar hisoblanadi.

Shuningdek, ertakning qo'shiqdan farqlanadigan boshqa xususiyatlari ham borligini ta'kidlashimiz zarur. Masalan, ertaklarda nisbatan romantik va fantastik tasvir uslubi ustunlik qiladi. Ularda ham qo'shiqlardagi singari ko'tarinki ruh bilan

nihoysiga etadi. Aytaylik, o`zbek ertaklaridagi an`anaviy xotimalar: «Etti kecha, etti kunduz to`y - tomosha qilib, murod-maqсадlariga etibdilar», «Chol - kampir murod - maqsadlariga etib, uvali-juvali bo`lib, o`sha yurtda yashab yurgan emishlar».

Xulosa o`rnida shuni aytish joizki, ushbu bitiruv malakaviy ishimizda Namangan bolalar ertaklari poetikasini ertaklarni qo`shiq janri bilan munosabati bo`yicha tekshirdik. Bolalar ertaklari orasida kam uchraydigan qo`shiqli ertaklarga Namangan bolalar ertaklari ichidan misollar topish mumkin.

## II bob. O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING IJTIMOIIY HAYOTDA TUTGAN O‘RNI.

### 2.1. Ertak – nodir hayotning so‘ngsiz osmoni.

Bolalikni inson umrining eng beg‘ubor va oltin davri, deyishadi. Orzular osmonida parvoz etuvchi baxtiyor bolalikni esa xalq badiiy tafakkurining dahosi yaratgan go‘zal ertaklarsiz tasavvur etish qiyin. Bola er takdagi jasur qahramonlardan ibrat oladi. Chunki bu qahramonlar hamisha mehnatkash xalqni turli-tuman balo-yu ofatlardan, zulm-u adovatlardan, yovuz dev-u ajdaholardan himoya qiladi.

Ertaklar olami bilan tanishgan kishi avvalo ma‘naviy barkamollik chashmalaridan bahra oladi. Bolaligida „Uch og‘ayni botirlar“ ertagini o‘qimagan odam kam topilsa kerak. Ota farzandlarini olis safarga kuzatar ekan, bunday deydi: „O‘g‘illarim, sizlarni... birinchidan, sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim — quvvatli bo‘ldingiz. Ikkinchidan, yarog‘ bilan tanishtirdim — yarog‘ ishlatishga usta bo‘ldingiz. Uchinchidan, qo‘rqitmay o‘stirdim, botir bo‘ldingiz. Yana uchta narsani aytaman, quloqlaringizga olib, esdan chiqarmanglar. To‘g‘ri bo‘ling — bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang — xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang — baxtsiz bo‘lmaysiz. Bundan boshqasini o‘zingiz biling...“<sup>40</sup>

Bu gaplar juda sodda aytilgan bo‘lsa ham, ularda olam-olam ma‘no bor. Ertakda uch og‘ayni botirlar ota nasihatiga a‘lo darajada amal qiladilar. Ular biri yovuz sherni o‘ldiradi, ikkinchisi ajdahoni o‘ldiradi, uchinchisi qirq qaroqchini o‘ldirib, podshoning qizlarini qutqarib qoladi. Lekin uchalasi uch kechada qilgan ishlari to‘g‘risida hech kimga churq etib og‘iz ochishmaydi. Podsho o‘rdasida mehmon bo‘lib o‘tirishganida ham ular rost gapirishadi, podshoning aslida novvoy naslidan ekanligini, go‘shiti dasturxonga qo‘yilgan qo‘zi it emib o‘sganligini, shinnining odam qoni to‘kilgan so‘rida o‘sgan uzumdan tayyorlanganini ziyraklik bilan sezishadi. Podsho tekshirtirib ko‘rganda, uch og‘ayni botirlarning gapi to‘g‘ri chiqadi.

---

<sup>40</sup> O‘zbek xalq ertaklari. 3 jildlik. 1-kitob. – T.: O‘qituvchi. –B. 115.

Italiyada XIII asr oxirida vujudga kelgan donishmandlik kitobi — „Novellino" to'plamida ham xuddi shunga o'xshash hikoya uchraydi. Yunon — Makedoniya podshosi Filipp zamonida bir donishmand yunon zindonga tashlangan ekan. Uning bilimdonligi, shuhrati olamga yoyilibdi. Podsho uni sinab ko'rish uchun, saroyga chaqirib, uchta savol beribdi. Avvalo, podsho cholga ajoyib tulporini ko'rsatib, uning zotini bilib ber, debdi. Donishmand yunon bu ajoyib tulpor eshak suti emib katta bo'lganligini aytibdi. So'ng podsho nafis javohirlaridan eng chiroylisini baholab ber, debdi. Donishmand yunon bu qimmatbaho toshning ichida qurt borligini aytibdi. Keyin, podsho o'zining nasl-u nasabini so'rabdi. Donishmand yunon uning novvoy farzandi ekanligini aytibdi.

Taajjubga tushgan podsho, bu ishlarni tekshirtirib ko'rganida, donishmandning hamma gaplari to'g'ri chiqibdi.

O'zbek xalq ertagi bilan italyan novellasining o'xshashligi — qadim zamonlardan Sharq va G'arb xalqlarining madaniy aloqalari borligini ko'rsatadi.

Humo qushining pati haqidagi o'zbek xalq ertagi „Bulbuligo'yo" ham mashhur rus xalq ertagini eslatadi. Bundan ikkala xalq madaniyatining ham azaldan yaqin ildizlari borligini sezish mumkin.

Ertaklarda adolat va haqiqat ulug'lanadi. Xalq podshodan, el-yurt rahbaridan adolat va haqiqat kutadi. Chunki el-yurt rahbari o'z xalqini o'z oilasi deb bilishi kerak. Podsho, rahbar ko'pincha yurt otasi deb hisoblanadi. U o'z farzandlariga hech qachon yomonlikni ravo ko'rmaydi. Ammo farzandlar orasida sodiqlari ham, sotqinlari ham, mard, bahodirlari ham, qo'rqqoq, mug'ambirlari ham bor. Ertaklardagi devlar, ajdaholar esa el-yurt boshiga tushgan zulm, haqsizlik, zo'ravonlik, xudbinlik, takabburlik, ochko'zlik singari ijtimoiy illatlardir. Mana shu dev, ajdaho va jodugarlar ko'pincha podshoning go'zal va aqlli qizlarini, bahodirlarning sevimli qalliqalarini bandi qilib yashiradi yoki halok etadi. Ertak qahramonlari esa ana shu yovuz kuchlarga qarshi hayot-mamot jangiga kirishadilar. Qiynalib qolgan paytlarida ularga tabiatdagi ezgulik, yaxshilik kuchlari yordamga keladi.

Azal-azaldan inson o'zining butun olam bilan, tabiatdagi barcha mavjudot bilan aloqadorligini sezgan. Tabiat farzandi bo'lgan inson hayvonot va o'simliklar ham tabiat farzandi ekanligini tushungan. Shuning uchun ham u ko'p hollarda og'ir ahvolga tushib qolgan qushlarga, baliqlarga, otlarga, chumolilarga va hokazolarga yordam qo'lini cho'zgan, ularni falokatdan qutqargan, zarur paytlarda o'zi ham ularning yordamiga suyangan. Ajoyibotlarga boy „Suhrob bilan Muzrob“ ertagi qahramoni madrasada tahsil ko'rib, Xo'ja Hofiz, Mirzo Bedil kitoblarini o'qiydi, romantik tabiatli, xayolparast bu yigit ayni chog'da tabiat quchog'ini qo'msaydi.

„Muzrob tushida keng, xushmanzara ko'kalamzorda sayr-sayohat qilib yurgan emish. U joyning bir tomoni tog', bir tomoni bog' bo'lib, o'rtadan katta daryo oqib o'tar ekan. Daryo goh ko'tarilib, goh pasayib, oppoq nuqradek to'lqinlanib turgan emish“.

Bolaligimizda bizga olam go'zalliklarini hadya etgan, fikr-u xayollarimizga qanot bag'ishlagan tabiatning ko'rkam go'shalari yoshimiz ulg'ayganida xohishimizdan tashqari bizdan uzoqlasha boshlaydi. Chunki ulg'ayganimizda obro', martaba, hashamatli hayot, shon-shuhrat kabi sivilizatsiya girdoblari bizni o'z komiga tortadi, tiniq va teran tabiat go'zalliklariga hayratimizni so'ndira boshlaydi. Ammo ko'nglimiz bunga qarshi isyon ko'taradi, xushmanzara ma'volarni, yamyashil o'tloqlarni, chaman bog'larni, o'rmon, jilg'a, buloq va asov sharsharalarni sog'inamiz, ba'zan shularni tushimizda ko'ramiz. Ertakdagi Muzrobning tushiga biz ham kirib, u bilan birga g'aroyibotlarni uchratamiz.

„Daryoning chap tomonida kattakon, chiroyli shahar ko'rinibdi. Shaharning ko'k gumbazli madrasalari, baland minoralari, ikki-uch qavatli imoratlari bor ekan. Shahar ko'chalarida oq terak, mirza terak, qayrag'och, mevali daraxtlar ko'p bo'lib, shahar atrofi baland devor bilan o'ralgan ekan. Muzrobning ko'zi shahar darvozasiga tushibdi. Darvoza ochilibdi. Undan otliq qizlar chiqishibdi. Qizlar shohona kiyinishgan, sochlarini boshlariga tugib, oq parda bilan yuzlarini

bekitishgan ekan. Qo'llarida kamoncha, o'q, nayza va qalqon ushlab, to'rtta-to'rtta bo'lib, otlarini choptirib, daryo bo'ylab sayohatga chiqib-dilar..."<sup>41</sup>.

Qahramoniriniz ham olim, ham shoirta'b yigit. Bahqchi otasi „O'g'limning baxti uchun!" deb, suvga to'r tashlar ekan, biz bu baxtni oddiy baliq emasligini anglaymiz. Boya aytganimizday, olam birligi qonuniga ko'ra, o'g'il baxtiga tutilgan kattakon laqqa baliq, keyinchalik uning tutingan akasi — pahlavon Suhrob bo'lib, ajoyib-g'aroyib qahramonliklar ko'rsatadi. Agar Ovrupo ritsarlari ko'pincha qirol va sevgilisi uchun jasorat ko'rsatsa, Suhrob barcha ajoyib qahramonliklarini inisi Muzrob baxti uchun bag'ishlaydi. Ushbu ertakda juda-juda qadimda otabobolarimizning olovga, suvga, qushlar va baliqlarga topingan davrlarining aksadosini sezamiz. Chunki ertakda suvdan chiqqan baliq — pahlavon ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan g'aroyib ishlarni qiladi, qudratining cheki yo'qday tuyuladi...

Ertaklardan xalqlarning ibtidoiy davrlardagi olamni tasavvur qilishlarini bilib olish mumkin.

Xalq o'zining go'zallik idealini parilarda ko'radi. Darvoqe, parilar go'zallik idealigina bo'lib qolmay, adolatparvarlik, insonparvarlik orzusi hamdir.

Go'zallik esa g'oyat nafis, uni avaylash kerak. Agar ko'z qorachig'iday avaylab-asralmasa... „Guliqahqah" ertagidagi kabi pari kundoshlari tomonidan tuhmatga uchrab, zindonband qilinadi. Uning tilla sochli farzandi tortib olinib, suvsiz sahroga tashlanadi. Ammo adolatsizlik qurboni bo'lgan, podshoning bog'larida yayrab-yashnab yurish o'rniga kimsasiz sahroda tashlandiq qolgan bola taqdir taqozosi bilan yana onasining kundoshlariga yo'liqadi. Ertakda balog'atga yetgan, kuchga to'lgan yigitchani ham bola, bo'z bola deyishadi. Siz o'zingizni ana shu bo'z bola o'rnida ko'ring. Sizni yana kundoshlar Guliqahqah parini izlash bahonasida odamxo'r devlar makoniga yo'llashadi. Siz pari nomini eshitgan zahotingiz, dushmanlaringizning makkorligini unutib, devlar makoniga ketaverasiz. Ammo devlarga majburiyat yuzasidan xizmat qilayotgan pokdil chol sizni qutqazib, Guliqahqah parini ham qo'sh-qo'llab tutqazadi. Ammo shu bilan u

---

<sup>41</sup> O'zbek xalq ertaklari. 3 jildlik. 1-kitob. – T.: O'qituvchi. –B.7.

murod-maqсадiga yetmaydi. Jodugar kampir sizning tirikligingizni ko'rib, yana aldaydi. Devlarning qirq qozonini olib kel, deydi. Siz ketaverasiz, chunki qahramonsiz. So'ng sizni oynayi jahonhamoni topib kelishga yuborishadi.

Sizga bu ishda chinorga in qurgan, tabiatdagi qarindoshingiz — dono qush yordam beradi. Ammo buning uchun Siz qushning bolalarini yeb ketayotgan ajdahoni tosh bilan urib o'ldirishingiz kerak. Ishonmayapsizmi? Qo'rqmang, qo'lingizga donishmand chol (ehtimol, u mangu tiriklik timsoli, tabiatday yashil libosli Hizrdir) bergan tosh. U oddiy emas, sehrli. Ana shu kichkina, lekin sehrli (ehtimol, lazer nuri taratuvchi) tosh har qanday yovuz ajdaholarni o'ldira oladi. Bu yaxshiligingiz qadrlanmay qolmaydi. Dono qush sizni uchirib osmonga olib chiqib ketadi, u yerda, osmon yaylovida qo'y boqib yurgan cho'ponning tayog'ida oynayi jahonnamo yashirilgan. Qush yordamida uni qo'lga kiritasiz. Ertak voqealari juda tez tugab qoladi. Siz bunga qoniqmaysiz. Mayli, qoniqmaganingiz yaxshi. Chunki kitobning keyingi sahifalarida sizni bundan ham qiziqarli ertaklar kutib turadi.

Ba'zi podsholar el-yurt farovonligini o'ylasa, ba'zilari javohirot daraxtining bir yaprog'ini deb, yurtining posbonlarini jallodga topshiradi. Jallodning ishi ma'lum. Ular doimo: „Kimning ajali yetdi, oftobni soyaga yetkarmay, jonini olay" deb turishadi.

Ammo, yaxshiki, dono vazirlar ham bor. Ulardan biri podshoni to'g'ri yo'lga soladi: „Ey, shohim, har kuni qirqtadan yigitning boshini kesaversang, shaharda odam qoladimi?"

Ana shundan keyin siz ertakdagi podshoning uch o'g'lidan biriga aylanasiz. Akalaringiz bilan galma-galdan javohirot daraxtini qo'riqlaysiz. Akalaringiz poyloqchilik vaqtida uxlab qolgani uchun zindonga tashlanadi. Sizni ham yarim tunda uyqu bosadi. Ammo siz qahramonsiz. Uxlab qolmaslik uchun, jimjilog'ingizni kesib, qalampir-tuz sepasiz...

Yarim kechasi bir qush keladi. Ertakda bu qushning qanaqaligi aytilmaydi, chunki uning nimaligini qahramon ham bilmaydi. Notanish, sirli qushning bir pati yarim podsholikka arziydi. Agar shunday bo'lmasa, podsho o'z farzandlarini olamning narigi chekkasiga xatarli safarga yubormasdi-da.

Sirli qush keyinchalik kenja o'g'ilga baxtini topishga yordam beradi, demak, u Humo bo'lib chiqadi. Ikki aka uxlab qolgani uchun qushni ko'rishmaydi. G'aflatda yotganlarga Humo tutqich bermaydi, albatta.

Podsho o'g'illari qushni topib kelish uchun safarga o'tlanishadi. Ular „borsa kelar“, „borsa xatar“ va „borsa kelmas“ deb atalgan uch yo'l ayrilishiga kelib qolishadi. Ertakda bahodirlarning mardi hamisha „borsa kelmas“ yo'lni tanlaydi. Chindan ham u begona yurtda g'aroyib qushni qo'lga kiritolmay, tutqunlikka tushib qoladi. Podsho uni yanada qiyinroq ishga — go'zal parini topib ohb kelishga yuboradi. Bu ishni bajarayotganda yana tutqunlikka tushadi. Podsho yigitga yanada qiyinroq ishni, „Daryoyi Qulzum“ning nariyog'idagi bir jodugar qo'riqlayotgan tulporni Qoraqaldirg'ochni olib kelishni buyuradi. Yigit pari yordamida jasorat ko'rsatib, tulporni qo'lga kiritadi.

Xalqimizda „O'limdan boshqa narsaning chorasi bor“ degan hikmatli ibora yuradi. Bu ibora shafqatsiz o'lim dahshati oldida ojiz qolgan bechora insonning iqrordan boshqa narsa emas. Shu ko'hna Yer kurrasi vujudga kelib, bashar zoti tarqalib, yetti iqlimni zabt etibdiki, bu iqror o'zining haqqoniyligi bilan jaranglab keladi. Biroq inson, uning ko'ngil mayli yakka-yu yagona ana shu iqrorga ham bo'yin eggisi kelmaydi, isyonkor orzular bilan uni chilparchin qilib tashlaydi. Bunday orzu faqat ertak deb atalmish purziyo olamda amalga oshadi, xolos. Unda barcha yovuzliklar — madfun-u, barcha ezguliklar barhayot. Unda yaxshi inson zoti o'lim bilmaydi. Chunki ertak deb atalmish sehrli ochunda buning chorasi topiladi. Buning uchun siz allaqanday tog' o'ngiridagi qorong'i g'orga qarab yo'l oling. Yo'lda siz dastlab bahaybat ajdarga duch kelasiz. U sizga hamla qiladi. Siz esa hech ikkilanmasdan unga tashlaning. Axir siz ajdarni yengasiz, chunki bu ertak deb atalmish noyob olam. So'ngra g'orga qarab yana dadilroq odim tashlang. Birdan hammayoqni zulmat qoplab, kuchli bo'ron turadi, zamin qattiq silkinib, qarshingizda bahaybat dev paydo bo'ladi. U sizga — shakkok odam farzandiga nafrat bilan boqib, qah-qah otadi. Bu qahqahadan tog' cho'qqilari ko'chib, zilol tog' irmoqlari teskari oqib, buloqlarning suvi qurib qoladi. Shunda ham aslo qo'rqmang! G'ayrat bilan devga tashlaning. Axir siz dev bilan jangda g'olib

chiqasiz. Chunki bu ertak deb atalmish sehrli olam. G'or juda chuqur, qorong'i va sovuq. Dadil tushib boravering. Aylanma yo'llar sizni g'aroyib bir sandiq qoshiga eltadi. Bardam ruh bilan siz uni oching. Sandiq ochilishi bilan undan allaqanday ko'k kabutar uchib chiqadi. Darhol uni tutib oling-u qanoti ostiga yashirinib olgan ilonni o'ldiring. Shunda g'aroyib hodisalarning shohidi bo'lasiz. G'orning ichi yorishib ketadi, siz ortingizga qaytasiz, tog' irmoqlari yana o'z iziga oqqan, buloqlar qaynab-toshgan, gullar ochilgan, atrofida bulbullar sayragan. Shodon qaytib, o'lim oldida bosh eggan bahodir oldiga kelasiz. Bunda ham mo'jiza yuz berganini ko'rib aslo hayratlanmang, chunki u yana hayot chashmasidan suv ichib, sizni kutib o'tirgan bo'ladi. Ha, ha, u tirilib, sizni mushtoqlik bilan kutadi. Chunki bu ertak deb atalmish abadiy barhayot olam...

Bularning hammasiga surat va siyrat ato etgan Navoiy dahosi xalq dahosi bilan birikib, she'riy mo'jizalar hosil qilgan. Yoki buyuk mutasavvif alloma Farididdin Attor bog'idan ko'chat olib yetishtirilgan bo'ston — „Lison-ut-tayr" dostonidagi bir-biridan go'zal va teran ma'no durlari jilolangan afsonalarni olaylik. Dostonda vasf etilgan Talab vodiysi, Ishq vodiysi, Ma'rifat vodiysi manzaralari ertaklardagidek sehri va mo'jizaviyligi bilan dilni maftun etadi. Chindan ham Navoiy aytgan:

Chun Talab vodiysig'a qo'ysang qadam,  
Oldinga har dam kelur yuz ming alam —

kabi ma'nosi insonni umr bo'yi o'ylantiradigan so'zlar ham xalq ijodining donishmandligidan parvarish topmaganmi?

Gyotening shohona „Faust" dostoni, Pushkinning „Oltin xo'roz" ertagi, ayniqsa „Ruslan va Ludmila"si hayratomuz poetik fantaziyasi bilan dillarga hayajon soladi. „Ruslan va Ludmila"da rus poeziyasining dahosi bir ertakni emas, son-sanoqsiz go'zal ertaklarni real hayotning, hatto tarixiy hayotning murakkab hodisalari bilan qorishtirib, mo'jizaviy she'riy qudratga erishgan.

O'zbek shoiri Hamid Olimjonning „Semurg' yoki Parizod va Bunyod" ertagichi? Bunda shoir adolat, haqiqat, yaxshilik kuchlarining zulm, istibdod,

munofiqlik, sotqinlik, takabburlik kuchlari ustidan g'alabasini o'zbek xalq ertaklari asosida chiroyli she'riy misralarda mujassam etgan.

Ertaklarga faqat bolalar emas, balki Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, Gyote, Pushkin, Andersen kabi daho mutafakkirlar, hatto Balzak va Lev Tolstoy kabi buyuk realistlar ham ishonishgan. Chunki ular ertaklar zamiridagi ulkan haqiqatni anglashgan va o'zlari ham go'zal ertaklar to'qishgan.

Firdavsiy dahosining mangu obidasi „Shohnoma“ dostonidagi g'aroyib ertak va afsonalar, Ahriman va Hurmuzd, zulmat va nur, yovuzlik va yaxshilik kuchlarining olishuvi, Jamshid saltanatida insonlarning devlar ustidan g'alaba qozonishi, Zahhok — Ajdaho saltanatida zulm kuchayib, adolat mahv etilishi, dunyodagi barcha jonli va jonsiz mavjudotning otasi — yarim odam va yarim ho'kiz qiyofali Sfmks — Kayumars ham uning avlodlari, Faridun, Turon va Piron avlodlarining qahramonliklari, Rostam, Suhrob, Siyovushlarning adolat va tinchlikni barqoror etish uchun kurashlari — bularning bari ertakka o'xshasa ham, minglab xalqlarning tili va dili, ijtimoiy ongi, teran shuuri va tafakkurining yuksak she'riy ifodasidir.

Alisher Navoiy xalq og'zaki ijodini, ertak va afsonalarini sevib o'qigan, ulug' shoir va mutafakkir alloma bo'lib yetishganida ham o'zining eng buyuk asarlarini xalq ertak va afsonalari bilan bezagan. Dahshatli ajdar bilan olishib, sehrli oynayi jahonni topib, unda go'zal Shirinni ko'rib, qalbiga buyuk muhabbat olovi tutashgan Farhod, „Sab'ayi sayyor“dagi bir-biridan ajoyib afsonaviy qahramonlar — mushkul tilsimotlarni kashf etgan Sa'd, sehrli buloqqa sho'ng'ib, devlar va parilar oroliga tushib qolgan Suhayl, kamtarinligi va bahodirligi bilan baxtga yetishgan Muqbil, suvsiz jazirama cho'lga tashlab ketilgan va Chin donishmandi parvarishlab voyaga yetkazgan parivash sozanda Dilorom...

O'zining maftunkor sehri, tuganmas shukuhi, dilni rom etuvchi jozibasi bilan hamisha qanotlanib turuvchi xalq ertaklari inson xayolotining mevasidir. Kishilar o'z qismatining chigalliklarini yechishdan ojiz qolgan chog'larda, ertak uni nurli qanotlarida umidli manzillarga ko'tarib o'tgan. Bashariyat hali zulmat qo'ynida najot yo'llarini qidirib, asrlar mobaynida kimsasiz taqdir so'qmoqlarida tentirab

yurgan onlarda ertaklar uni xayolot qanotida ziyobaxsh sohillarga eltgan. Bir so'z bilan aytganda, ertak insoniyatning beg'ubor bolaligi yetishtirgan samaradir. Binobarin, uning ta'rif-u tavsifiga til ojiz, qalam — behol.

Biz bugun sanoq mashinalari bir soniyada yuz minglab chigal muammolarni osonlik bilan hal qilib berayotgan, inson farzandining qadami olis sayyoralarda iz qoldirayotgan bir davrda yashayapmiz. Binobarin, hozir kishilarni hayron qoldiradigan ishlarni, mo'jizaning o'zini topish amri mahol. Biroq uzoq ajdodlarimizning orzu-istaklari bunyod etgan ertaklarda bunday mo'jizalar to'lib-toshib yotibdi. Chunki bir dam bilan daryo suvini sipqoradigan, uchar gilamda dunyoning istalgan go'shasiga bir zumda bora oladigan, afsonaviy Semurg' qanotida osmono'par tog'lar-u had-hududsiz dengizlardan o'ta Oladigan bahodirlar ertaklarda tajassum topgan. Shu boisdan ham ularda yaxshilik, oliyjanoblik, mardlik va adolat tantana qilsa, nomardlik va zulm jazoga mustahiqdir.

Atoqli folklorshunos olim Mansur Afzalov hayvonlar hayotiga oid ertaklarda ham insonlarning axloqi, fe'l-atvori, tabiati yaxshi ochib berilganligini, bu ertaklar bolalar qalbiga va ongiga tez yetib borishini aytganida ming bora haqli edi.

Inson xayolotining ufqlari uning ruhiy olami qadar keng hamda chegarasizdir. Shuning uchun ertak azal-azaldan kishilardagi yaxshi sifatlarni kamol toptirishning, ularning go'zallikni his etish qobiliyatini o'stirishning, Vatan, el-yurt obodligini, osoyishtaligini ta'minlash ishqini bilan yashashga targ'ib etishning qudratli vositasi sifatida kishilar xotirasida yashab keladi.

„Bulbuligo'yo" o'zbek xalqining ertak chamanidan saralab berilgan bir guldasta. Bu ertaklar xalqimizning yuksak va musaffo xayolot osmonining bir burji, xolos. Bu osmon katta-kichik yulduzlar bilan bezangan. Siz ularga tunlar mijja qoqmay boqing. Ana o'shanda yulduzlarning betakror jilvasi, nurziyo tovlanishi sizga huzur-halovat baxsh etadi, ko'ngildagi g'ubor tarqab, o'rnini nurafshon tuyg'ular egallaydi. Agar farzandlarimiz yaxshi odamlar bo'lib yetishsin desangiz, siz ularga oydin tunlarda oppoq tongga qadar ertak so'ylab bering, ularning murg'ak qalbida oy nuri bilan yo'g'rilgan ezgu tuyg'ular bir umrga naqshlanib qoladi.

Xullaski, inson bor ekan, u ertak bilan o'sib-ulg'ayadi, o'zining qalb qo'rini ertak bilan boyitadi. Dunyoda ertak bor ekan, odamlar xonadonidagi chiroq abadiy o'chmaydi, ezgulik yovuzlik ustidan hamisha g'olib chiqadi.

Ongida badiiy tafakkur buloqlari, qalbida nafis shuur irmoqlari quriy boshlagan ayrim odamlar ertaklarni xushlamaydilar, ularga ishonmaydilar. Bunday odamlar olis parvozlarga chorlovchi xayoliy tafakkur qanotidan ayrilib, faqat kichik so'qmoqlarda o'ralashib, o'rmalashib qolgan vujudlarga o'xshaydilar. Ular ertaklar zamiridagi ulkan haqiqat javohirlarini ko'rmaydilar.

Ma'nolar xazinasini ertakda, haqiqat dafinasi ertakda. Murakkab hayot hodisotlari orasida haqiqat bo'lib ko'ringan narsa — afsona va aksincha, afsona bo'lib ko'ringan narsa — haqiqat bo'lib chiqishi mumkin. Navoiy aytganidek:

Ixtilofi juzv ila hull mundadur,  
Kim, taraqqiy-u tanazzul mundadur...

Ertaklar olami shunday sehrli, hayotbaxsh chashmaki, bu chashmaning teran va musaffo buloqlaridan bir bor to'yib suv ichgan kishi umr bo'yi shirin orzularidan ayrilmaydi, hamisha yaxshilik uchun, erk va adolat uchun kurashdan charchamaydi. Ertaklar xalq aql-zakovatining qudratli parvozi, ertaklarda xalqning orzu-istaklari, ming yillik donoligi, tajribasi, majoziy timsollar zamiridagi mangu hayot muammolarini bilishga intilishi aks etadi.

Xullas, xalqimiz ertaklarni sevgani, uning zamiridagi falsafiy, majoziy ma'nolarni yaxshi tushungani tufayli ertaklarni qayta-qayta o'qiyveradi.

## **2.2. Ertaklarda maishiy turmush masalalarining yoritilishi.**

Xalqimiz yaratgan xayoliy hikoyalar orasida shunday turkum ertaklar borki, ularni biz hayotiy-maishiy ertaklar deb ataymiz. Bunday ertaklardagi voqealarning aksariyati hayotga yaqin, hayotdan olingan. «Zumrad va Qimmat», «Oygul bilan Baxtiyor», «Ziyod botir», «Tohir va Zuhra», «Ozodachehra», «Farhod va Shirin», «Malikayi Husnobod», «Uch og'a-ini botirlar» ana shunday ertaklar sirasidandir. Biz yuqorida tilga olgan hayotiy-maishiy ertaklar kishida jiddiy fikr-mulohazalar

uyg'otadigan, muayyan tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'lgan asarlardir. Ular bilan tanishgach, botirlik, yurtga fidoyilik, odamgarchilik, vafodorlik, himmat va saxovat haqida aniq tasavvurga ega bo'lamiz, o'zingimizda ham ertaklar qahramonlaridagi yaxshi fazilatlarni bo'lishini xohlab qolamiz, shunga intilamiz. Zero, ertaklar hech vaqt bekorchi, ermak narsalar bo'lmay, ular hamma vaqt zo'r ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga egadir. Bahaybat maxluqlar haqida hikoya qiluvchi ertak va afsonalarda u yoki bu davrning ijtimoiy, hayotiy kurashlari, xalq manfaatlarini o'zining badiiy ifodasini topgan.

Ana shu buloq singari jo'shqin, ummondek tubsiz, bebaho xazina bo'lmish ertak o'zining g'oyaviy mazmuni, badiiy qudrati bilan hamisha mehnat ahlini o'ziga maftun etib kelgan.

Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning har doim xalq hayoti, kurashi, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlarini bilan juda yaqin bog'langan bo'lishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidir. Ertak — insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan to'lib-toshgan. U insonga butun real va tabiatdan tashqari kuchlarning bo'ysunganini ifodalaydi. Ertaklarda inson tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi. Xalq o'z ertaklarida badiiy obrazlar orqali o'z dunyoqarashi, axloq normalari va boshqa ijtimoiy masalalarni o'rta qo'ygan va o'zicha hal etgan. Bu fikrlar, intilishlar, orzu-havaslar ommaning didiga, ruhiga yaqin obrazlar orqali ravon, jonli tilda yetkazib berilgan. Ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun katta va kichikka, savodli va savodsiz kishiga tez yetib boradi. Ular orqali insonning ijtimoiy axloq normalari ham shakllanadi. Ba'zan bu axloqiy normalar masal tarzida, allegorik ravishda ifodalanib kelgan. Bu hol, ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarda aks etgan. Xalqning kelajakka ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga ergashish kabi g'oyalar ertaklarda yorqin obrazlar orqali tasvirlangan. Xalq ertaklaridagi bu motivlar g'oyaviy-emotsional ta'sirni kuchaytiradi, mehnatkashlarning zulmkorlarga qarshi nafrat-g'azabini oshiradi va xalq ma'naviy hayotining ajralmas qismini tashkil etadi.

Xalq ertaklari el-yurti ko'z qorachig'iday avaylab-asraguvchi ajoyib vatanparvar qahramonlarni ulug'ladi; ayollarning haq-huquqini himoya qildi; osmonda uchishni, oyga yetishni orzu qildi, „Oynayi jahon“lari orqali yer yuzida bo'layotgan voqealarni bilib turdi, uzoqni yaqin qildi; „Ochildasturxon“lari bilan noz-u ne'matlar yaratdi; kishilar xarakteridagi yaramas odatlarni, noma'lum, noma'qul hislatlarni tanqid ostiga oldi; mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, to'g'rilik, saxiylik g'oyalarini ilgari surdi, ulug'ladi. Safarga otlangan botirning bir siqim tuproqni o'zi bilan birga olib ketganligini hikoya qiluvchi ertakni eslang. Ana shu bir siqim vatan tuprog'i o'zgalar yurtida unga kuch-quvvat ato etadi, yaralanganda dardiga malham bo'ladi, maqsadga yetishida madad beradi<sup>42</sup>.

Ana shunday xalq prozasi — ertakda, ayniqsa, romantik tasvir kuchli bo'ladi. Unda qahramon jabr-jafo chekadi. Lekin oxiri baxtiyor bo'ladi, tengsiz jangda, kurashda g'olib chiqadi. Bunda romantik yechim — xotima xalqning idealidan, uning orzu-umididan kelib chiqadi. Busiz mumkin emas, ertak xalqning o'z kuch-qudratini anglab olishga madad berishi, uni baxtiyor kelajakka tomon ilhomlantirishi, kurashga chorlashi va shu kurashning abstrakt bo'lsa-da, g'alabasiga ishontirishi kerak. Bunday optimistik yo'nalish turli ertaklar (hayvonlar haqidagi ertaklarda ham, sehrli-afsonaviy ertaklarda ham, ijtimoiy-maishiy ertaklarda ham, hayotiy ertaklarda ham)da ufarib turadi. Misol tariqasida „Kambag'al qiz“, „Podachining qizi“, „Zumrad va Qimmat“, „Ota vasiyati“, „Ko'k qo'chqor“, „Uch og'ayni botirlar“, „Kambag'al-qashshoq“, „Ahmadlar“ kabi ertaklarni olib ko'raylik. Bunday ertaklarda mehnatkash xalqning mung va zori, qayg'u va hasrati ham, quvonchi va baxtli, shod va erkin kunlarga intilishlari ham o'z ifodasini topgan, yaxshi yashash haqidagi ezgu niyat, orzu-umidi aks etgan.

O'tmishda qashshoq yashagan, og'ir mehnatdan tinka-madori qurigan, och-yupun, bir parcha nonga zor bo'lgan kishilar farovon turmush, yaxshi kunlar haqida orzu-istaklarini o'z og'zaki ijodlari orqali bayon qilganlar.

---

<sup>42</sup> Ibrohimova Z. Kichkintoylar ertaklarida bir badiiy usul haqida // «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 3-son, 1989 yil.

Mehnatkash xalqning turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan bunday ertaklarning qahramonlari turli toifadagi kishilar: biri cho'ri, biri ishsiz — qashshoq, biri podachi, biri ovchi — mergan. Lekin barchasining ham intilishi va niyati bir: yaxshi yashash, sevgilisi visoliga yetish, el-yurt xizmatiga kamarbasta bo'lish — bu yo'lda duch kelgan to'siq va g'ovlardan dovyuraklik va jasorat ko'rsatib o'tishdan iboratdir.

Ertak qahramonlari poklik, aql-zakovat, tadbirkorlik, qahramonlik bilan ish ko'rganliklari uchun ham omadlari keladi, baxtli bo'ladilar.

Mehnatkash xalq bechorahollik bilan hayot kechirgan, ko'pincha, ochlik, yupunlik ularning bir umr hamrohi bo'lgan. Uzun tunlari bir-birlarini ovutish, ko'ngillarini ko'tarish maqsadida ertaklar aytishgan. Xalq to'qigan ertaklarda unumli mehnat qilish, farzand rohatini ko'rish, baxtiyor bo'lish, oliyjanoblik, ezgulik g'oyalari yotadi. O'rni kelganda birdaniga katta boylikni qo'lga kiritib, el-yurti, boy-badavlatlarni qoyil qoldirish mehnatkash xalqning ezgu tilagi bo'lib kelgan. „Oltin tarvuz“ ertagi xuddi shunday orzu-niyat, oliy istak bilan to'qilgandir.

„Oltin tarvuz“ yosh kitobxonga ko'p jihatdan ibratli. Unda, eng avvalo, mehnat ulug'lanadi, dehqon o'z yeriga qayta-qayta ishlov beradi. Ikkinchidan, parranda-yu darrandaga g'amxo'rlik qilish g'oyasi ilgari suriladi. Dehqon laylakning majruh oyog'iga taxtakach bog'lab davolaydi. Uchinchidan, ochko'z bo'lmaslikka da'vat etiladi — dehqonning uyida hech vaqosi yo'q. Laylakni so'yib yeyishi mumkin edi, ammo u bu ishni qilmaydi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'tgan zamonda bir kambag'al dehqon bo'lgan ekan. Uning atigi bir tanob yeri bor ekan. Dehqon shu yerda kecha-kunduz tinmay mehnat qilib kun ko'rar ekan. Bahor kelib qolibdi. Dehqon yer hayday boshlabdi. Yerni ikki marta haydab bo'lib, yaqinidagi katta soyning bo'yida salqinlab o'tirsa, osmonda uchib ketayotgan bir laylak yerga qulab tushibdi. Dehqon qarasa, laylakning qanoti siniq ekan. Dehqon haligi laylakni darrov uyiga olib borib, siniq qanotiga taxtakach bog'lab, bir qancha vaqt uni boqibdi. Laylak sog'ayib, uchib ketibdi.

Laylakka qayta umr bag'ishlagan dehqon biror narsadan umidvor emas. Shu majruh laylakni davolab, behisob boylikka ega bo'laman, degan fikr xayoliga ham kelmagan. Laylak tashlab ketgan urug'ni ekib, unga ishlov berar ekan, oltin tarvuz yetishadi degan tushunchaning o'zi unda bo'lmagan.

Dehqon ochko'z emas, bir parcha nonni ham o'zgaralar bilan, qo'ni-qo'shni, o'ziga o'xshagan kambag'allar bilan baham ko'radi. Sabr-toqat bilan tarvuzlar obdon pishib yetilishini kutgan dehqonning „yaqin qarindoshlarini, oshna-og'aynilarini ham mehmonga chaqirishi“ kitobxon bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi.

Dehqon bir kuni tarvuzdan uchtasini uzib, uyiga olib ketibdi. Tarvuzlar juda katta ekan. Dehqon o'zining yaqin qarindoshlarini va oshna-og'aynilarini mehmonga chaqiribdi. Bir mahal tarvuzga pichoq ursa, pichoq sira botmas emish. Uni qo'yib ikkinchisini so'ymoqchi bo'libdi, o'tmabdi, uchinchisi ham shunday bo'libdi. Dehqon ham, mehmonlar ham hayron bo'lishibdi. Yerga bir urib yorib qarasarlar, ichi to'la tilla emish. Qolgan ikkitasini ham yorib ko'rishibdi. Ularning ham ichi tilla emish. Dehqon sevinib ketib, hammasini mehmonlarga ulashibdi, ular ham xursand bo'lib, uy-uylariga tarqabdilar. Uch tup tarvuzning har biri o'ntadan solgan ekan. Dehqon qolgan tarvuzlarni ham yig'ib olibdi. Shunday qilib kambag'al dehqon juda boyib ketibdi.

Xalq o'z ertagida voqeani yanada rivojlantirib, hayotiy ziddiyatlarni kuchaytirib tasvirleydi. Kambag'allarning boyib ketishi, ko'pincha, badavlat kishilarda hasad tug'diradi.

Ertakda ana shunday jirkanch odamlarning ashaddiy yovuzliklari, boylik va davlat deb qing'ir ishlarga ham qo'l urishlari qo'shni — xasis boy obrazi orqali fosh etiladi<sup>43</sup>.

Dehqon yaxshilik qilgani uchun behisob boylikka ega bo'lganini eshitgan boy, sog' laylakning oyog'ini ataylab sindirib, davolaydi. U ham tarvuz urug'ini boyning dalasiga tashlab ketadi. Biroq tarvuzdan oltin emas, balki qovog'ari chiqib, ko'pchilikni chaqadi.

---

<sup>43</sup> Avazova Sh. Xalq ertaklari chashmasi // «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 2-son, 1990 yil.

Boyning halok bo'lishi insonda achinish hissini uyg'otmaydi. Aksincha, tabiatga, qushlarga ziyon yetkazganligi, boylik ustiga behisob boylikka erishish uchun qasddan laylakning oyog'ini sindirganligi sababli bolalar uni qoralaydilar.

Umrni ezgu ishlarga, yaxshilik qilishga bag'ishlash eng noyob fazilatdir. Birinchi navbatda ota-onalarimizga muhabbat, hurmat, ularning barcha xizmatini qilish — bo'ynimizdagi muqaddas burch. Bu sharafli burchni ado qilib, ota-ona olqishini olgan farzand, shubhasiz, dunyoda baxtli, saodatli bo'lib yashaydi. Buning yorqin namunasini „Uch og'a-ini botirlar" ertagida ko'rish mumkin.

Ertakdagi ota uzoqni ko'zlab ish ko'radiganlardan. U o'g'illariga yaxshi tarbiya beradi. Natijada o'g'illari ota izidan borib, komil insonlar bo'lib kamol topadilar. Ota duosi, o'git-nasihatlarini dillariga jo qilib olganliklari uchun ular hayotda kam bo'lmaydilar. Ota o'g'illarini safarga kuzatib qo'yishdan oldin ularga shunday pand-nasihatlar qiladiki, biz bu pand-nasihatlardan ushbu kishining qanday odamligini osongina bilib olamiz. «o'zimdan keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar deb, sizlarni o'qitdim», — deydi u. Haqiqatan ham o'qigan odam dunyoni taniydi, oq-qoraning farqiga boradi. Ilmli va hunarli odam hech qachon xor bo'lmaydi.

Uch zabardast o'g'il. Uchovlarining qo'llari ko'ksida, otaga ta'zimda. Aql, kuch-jasoratda tengi yo'q bu yigitlar odobda ham hammani qoyil qoldiradilar. Ota kambag'al bo'lsa-da, botir-pahlavon o'g'illari ko'zining tirikligida hayotda o'z yo'llarini topib olishlarini orzu qiladi.

Odamning qanchalik tarbiyasi va halol-pokligi do'st orttirganda, safarga chiqqanda; mard-pahlavonligi esa kurashda, jangda bilinadi. Ota xuddi shunday reja, mo'ljal bilan farzandlarini safarga jo'natadi. Ertakni sinchiklab o'qib, ota nasihatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u bilimdon, uzoqni ko'ra oladigan, aql-zakovatda tengsiz bir inson ekanligini sezamiz. Otaning farzandlariga aytadigan so'zi — nasihati bir jumlagina. Lekin uning ma'nosi, ta'siri, kuchi olamcha bor.

Ota nasihatini bir necha bo'limlarga ajratib o'rganish mumkin. Nasihatning birinchisida har bir ota-ona o'z farzandi olamga kelishi bilan unga yaxshi, o'ziga munosib ism qo'yib, to'y-tomoshasini o'tkazib, o'qitishi, xat-savodli qilishi haqida gap boradi:

— O'g'illarim, men boy emasman, mendan qolgan davlat sizlarning maishatingiz uchun kifoya qilmaydi, o'zimdan keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar, deb sizlarni o'qitdim. Yaxshi ot qo'ydim. To'y qildim. Voyaga yetkazdim<sup>44</sup>.

Hamma zamonlarda ham bola tarbiyasi eng muhim masala hisoblangan. Nasihatda xuddi ana shu xususda so'z boradi. Bolani chinakamiga sog'lom, tetik, baquvvat qilib voyaga yetkazish, ona-Vatan himoyasiga tayyorlash, foydali mehnatga o'rgatish yosh bo'g'in kamolotida muhim o'rinda turishi aytiladi:

— Sizlarni uch narsa bilan tarbiya qildim. Birinchidan, sog'lom vujudli qilib tarbiyaladim — quvvatli bo'ldingiz. Ikkinchidan, yarog' bilan tanishtirdim — yarog' ishlatishga usta bo'ldingiz. Uchinchidan, qo'rqitmay o'stirdim — qo'rqoq bo'lmay, botir bo'ldingiz<sup>45</sup>.

Nasihatning uchinchi bo'limi juda muhim. Unda to'g'ri, halol, pok inson bo'lish, o'zgalar mol-mulkiga ko'z olaytirmaslik, kamtarlik suv bilan havodek zarurligi, ayni paytda, maqtanchoqlik va dangasalik yomon illatlarga olib kelishi ta'kidlanadi:

— Yana uch narsani aytaman, quloqlaringizga quyib olinglar, eslaringizdan chiqarmanglar. To'g'ri bo'ling — bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang — xijolat tortmaysiz. Dangasa bo'lmang — baxtsiz bo'lmaysiz<sup>46</sup>.

Bu pand mohiyatini tahlil qilsak, hayotga tayyorlanishi lozim insonning haqiqiy amal qilishi kerak hisoblangan fazilatlar aks etganiga ishonch xosil qilamiz. Xalqimizda “Och qornim, tinch qulog'im” degan maqol bor. Maqolda odam ba'zan odam nochor turmush kechirishi mumkin. Lekin bezovta kechgan soniyadan ko'ra och qorin bilan yashash afzal ekanligi ko'rsatilmoqda. Ota nasihatining birinchisi ana shu vaziyatni izohlaydi. Ya'ni tinchlikdan ulug' na'mat yo'qligi qayd etilmoqda. Bu falsafaning aniqligini o'zingiz hayotda sinagan bo'lsangiz, ajab emas. Xalqimizda “Maqtanma g'oz, hunaring oz” maqoli ham bor. Yo'q va amalgam oshmagan ishlar qancha maqtalgani bilan amalgam oshib qolmaydi. Maqtangan odam yuzi shuvut bo'ladi. Xalqimiz “mehnat – mehnatning

<sup>44</sup> O'zbek xalq ertaklari. 3 jildlik. 1-kitob. – T.: O'qituvchi. –B. 115.

<sup>45</sup> O'zbek xalq ertaklari. 3 jildlik. 1-kitob. – T.: O'qituvchi. –B. 115.

<sup>46</sup> O'zbek xalq ertaklari. 3 jildlik. 1-kitob. – T.: O'qituvchi. –B. 115.

tagi rohat”, deydi. Ya’ni; “Qimirlagan qir oshar” deganlaridek, har bir kimsa hayotga ishinishi, harakat qilishni kanda qilmasligi lozim. Quduqdan suv topa olmagan sahrodagi yo’lovchi umidsizlikka uchrab toxtab qolmasligi kerak. Ma’lum bo’ladiki, ertakni yaratishdan nazarda tutilgan bosh maqsad farzandga qiyinchiliksiz hayot kechirish kalitini tutqazishdan iborat ekan. Nasihatga amal qilish esa ertakda bayon etilgan voqealarda namoyon bo’ladi. Og’a-inilar ajdar, sher, qaroqchilar to’sig’idan o’z tadbirkorliklari bilan oson o’tadilar. Ammo kenja botir bog’da uxlab yotgan podshoga zahar solmoqchi bo’lgan ilonni qilish bilan chopib, qurolini qiniga solayotganida podshoh uyg’onib qoladi va kuyovini qotillik qilishda ayblaydi. Ana shu voqeada ham haqiqat, adlat oxir oqibat g’alaba qiladi<sup>47</sup>.

„Uch og'a-ini botirlar" ertagining qahramonlari mehribon, qattiqqo'l, talabchan ota tarbiyasini olganliklari uchun safar tashvishlarini osonlik bilan daf etadilar. Yo'lda o'zlariga duch kelgan barcha to'siq va g'ovlarni yengib o'tadilar. Botir va dovyurakligi bilan el-yurt olqishini olib, baxtiyor bo'ladilar.

Yoshlar kelajakda yaxshi xulq, ezgu niyat va go'zal fazilatlar egasi bo'lishlari uchun nima qilishlari lozim? Buning uchun aniq maqsad yo'lida qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, ota-ona, tarbiyachi va muallimlarning maslahatlariga amal qilish, vaqtni faqat foydali ishlarga sarflash, kuch-g'ayratni ilm-u fan tahsili uchun sarf qilish kerak. „Uch og'a-ini botirlar" ertagida ana shu g'oya o'z ifodasini topgan.

Mayishiy ertaklarda to'g'rilik va egrilik, mehnatsevarlik va dangasalik, poklik va nopoklik, mardlik va xiyonat doimiy ravishda qarama-qarshi qo'yiladi. Xalq ertak davomida kichik, e'tiborga arzimaydigan unsurlardan ustalik bilan foydalanadi, vaziyat yechimini ular orqali hal etadi.

“Tuxmatga uchragan kishi” ertagida boy ko‘chada jiyanining xotinini ko‘rib, unga uylanmoqchi bo’ladi. Insofga kelgan amakidek jiyanini savdoga jo‘natib yuboradi, ammo keliniga uylana olmaydi. Kelin karvonboshining qo‘liga tushadi. Bu yerda ham tuxmatga uchraydi. Zo‘rg‘a qochib qutiladi. Yo‘lda bir o‘g‘rini o‘limdan qutqaradi. Lekin o‘g‘ri unga tuxmat qilib karvonga sotib yuboradi. Taqdir kelinni qutqaradi. Ammo bu safar kelin o‘g‘rilar to‘dasiga duch keladi.

<sup>47</sup> Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –T.: Mumtoz so‘z. 2010. –B. 118.

Yana ozodlikka chiqadi va oxir provardida bir shaharga podshoh bo‘ladi. Ertak oxirida kelinga tuxmat qilganlarning hammasi bir joyga to‘planadilar va haqiqat ro‘yobga chiqadi. Ertakning bosh g‘oyasi ma'naviy poklikni ulug‘lash. Xalq “Haqiqat bukuladi, ammo sinmaydi” maqolining izohini bu ertakda izohlashga harakat qilgan. Har bir lavha muayyan maqsadni amalga oshiradi. Inson idroki chegarasiz ega ekanligi to‘la isbotlanadi. Bir yoshgina kelinning boshidan o‘tgan mudxish xodisalar, uning turli tuxmatlarga bardosh berishi tinglovchiga “Sening peshonangdagi mushkulot kelinniki oldida arzimaydi-ku” degan fikrni ta'kidlagandek bo‘ladi. Ertak yakunida yana bir ibratli hikmat bor. Kellinning eri tuxmatchilarni jazolash haqida gapirganida, xotini:

- Yo‘q, ular bilan teng bo‘lish kerak emas, deb javob beribdi”<sup>48</sup>

Demak, xalq yomon va yomon odam bilan muomalada bo‘lishni, hatto, uni jazolashni ham unga teng bo‘lish alomati deb baholaydi. Aynan shu bois o‘zbek xalqi, millat mentaliteti haqida gap borganda, oliy himmatlilik, bag‘rikenglik tilga olinadi. Binobarin, hayotiy mayishiy ertaklar qahramonlari o‘zbek millatining ramziy vakili ekan. Ular halqqa imon, vijdon, erk, idrok, iroda, qanoat, aql, hunar,ilm haqida tarbiyaviy tushunchalar beradi. Mayishiy ertaklarda asar ishtirokchilari boshidan kechirgan turmush vositalari vositasida yosh avlodning barkamol inson bo‘lib yetishuvi uchun tarbiyaviy zamin hozirlashdan iboratdir.

### **2.3. Ertaklarning bola tarbiyasidagi o‘rni va roli.**

Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Ertak xalq turmushi, urinishi, mehnati, yuksak ideallariga maskanligi, xullas, xalq hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog'langanligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir.

Xalq dahosi bilan yaratilgan ertaklar yosh avlodning tarbiyasiga kuchli ta'sir qiladi va ma'naviy hissiyotni uyg'otadi. Ertaklar insonni o'z kuchi, o'z huquqi, o'z

<sup>48</sup> Tuxmatga uchragan kelin. Ertak / Oyjamol (Hayotiy ertaklar, ikkinchi kitob). –T.: 1969. –B. 108.

ozodligini anglatishi, undagi mardlik va vatanga muhabbat tuyg'ularini uyg'otishi bilan ham ma'naviy oziqa berib kelgan.

Ertaklarni o'qish va eshitishni ham shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lishni tavsiya qiladilar:

- Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga o'qib, hikoya qilib beriladigan ertaklar;

- Maktab yoshidagi kichik bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar;

- O'rta va katta yoshdagi bolalarga o'qish uchun tavsiya etiladigan ertaklar.

Kichkintoy bolalarga tavsiya etilgan ertaklarning hajmi qisqa mazmuni sodda bo'ladi. Avval eslatib o'tganimizdek, bu yoshdagi bolalar hali olam nima ekanligini bilmaydilar. Shuning uchun ularga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do'stlik, mehnat ahli, jamoa, odob-axloq to'g'risida bo'lgani ma'qul.

Bu davr bolalariga „Chivinboy“, „Qizg'anchiq it“, „Tuyaqush bilan qoplon“, „Maqtanchoq quyon“, „Rostgo'y bola“, „Arilarning g'azabi“, „Tulki bilan turna“, „Sholg'om“, „Qumursqa“, „Kaptar sovg'asi“ kabi ertaklarni o'qib berish foydalidir.

Bog'cha tarbiyachilari va ota-onalar zimmasidagi eng muhim ishlardan biri kichkintoylarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashdir. Bolani yoshligidan boshlab mehnatga o'rgatish, kichkinaligidanoq unga bir yumush berib, ishga odatlantirish lozim. Unga buyuriladigan ish ahamiyatsiz, hatto „ish“ deyishga loyiq bo'lmasa ham, uning natijasi muhimdir. Oqibatda bolada yoshligidan mehnatni sevish, uddaburonlik, tirishqoqlik kabi fazilatlar shakllana boradi.

Bola bog'chaga borganda hayotda mehnatsiz yashab bo'lmasligini ma'lum darajada idrok etgani ma'qul. Bog'chada bajarishi kerak bo'lgan yumushlarni bolaning o'zi erkin ishlasin, xatolari uchun o'zini javobgar sezsin. Yosh qalb o'zi bajarayotgan ishning natijasini anglasin, fikr yuritishga, to'g'ri ishlashga, g'ayrat qilishga ko'niksin.

Ammo bolada bunday malakalar birdan hosil bo'lmaydi, balki asta-sekin yuzaga keladi. To'g'ri tarbiyani juda erta, oiladan, bog'chadan boshlash kerak.

Bolada mehnat malakasi vujudga kelsa, u ota-onasi, kattalarning ko'rsatib turishini kutib o'tirmay, o'zi eplab ketaveradi.

Ishga o'rganish va o'rgatishda e'tibor beriladigan narsa — har ishni o'z vaqtida bajarishga odatlantirishdir. Ishga odatlanish ham, uni o'z vaqtida bajarish ham tarbiyada katta ahamiyatga ega. Har ish o'z vaqtida qilinmasa, ko'p yumushlar yig'ilib qoladi, yuzaki, sifatsiz, pala-partish bajariladi.

Shuning uchun har qanday ishni o'z vaqtida g'ayrat va matonat bilan ado etish lozim. Chunki dunyodagi barcha tirik mavjudot harakat qiladi, intiladi va shu tufayli hayotda zarur bo'lgan narsalarga yetishadi. Hatto arilar, chumolilar va qushlar ham tinimsiz mehnat qilib, yozdan boshlab qish g'amini yeydilar.

Shu o'rinda xuddi inson kabi tinib-tinchimas, mehnatkash qumursqalar va ular haqida xalq to'qigan „Qumursqa“ ertagi o'qib, hikoya qilib berilsa, samarasi yaxshi bo'ladi.

Hayot shunday: kim tadbirkorlik bilan erinmay ko'p mehnat qilsa, sog'lom, boy-badavlat yashaydi, xor-zor bo'lmay umr kechiradi. Qumursqa maqtanchoq emas, u oddiy va sodda. Shu fazilatlari bilan ajralib turadi. Savol-javoblarda muz, bulut, quyosh, yomg'ir, yer, o't, mol, bo'ri, mergan-u sichqon kabilardan ham qumursqa ustun chiqadi.

Bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning asosiy qismini to'g'riso'zlik, halollik, birovlarni aldamaslik kabi g'oyalar ifodalangan asarlar tashkil etgani ma'qul. Masalan, turkman xalq ertagi „Rostgo'y bola“ni olib ko'raylik. Ertak qahramoni to'g'riso'zligi, kattalarning pand-nasihatlariga quloq solishi bilan yosh kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi.

Rus xalq ertagi „Sholg'om“ bu davr bolalar kitobxonligida asosiy o'rinda turadi. Ertak juda oddiy va sodda. Ammo uning ma'no va mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kuchli.

Ertakda boboning sholg'om ekishi va yirik sholg'omni ko'plashib tortib olish voqeasi tasvirlanadi. Ortiqcha tafsilotlar deyarli yo'q. Ammo unda kichkintoylarga ibrat bo'ladigan jihatlar ko'p. Ertakda boboning mehnatkashligi yaqqol ko'zga

tashlanib turadi. Bobo kechasi-yu kunduzi sholg'omga ishlov beradi, ter to'kib mehnat qiladi. Demak, ertakda, eng avvalo, mehnatsevarlik ulug'lanadi.

Ikkinchidan, bola atrofida bilan ahil, do'st bo'lib ulg'ayishi kerak. Kimki do'stlar bilan, jamoa bilan hamfikir, hamkor bo'lib o'ssa, o'ziga ham, o'zgalarga ham yaxshi. Ertakdagi kattakon sholg'omni yerdan tortib, sug'urib olish voqeasi yosh kitobxon uchun juda qiziqarli. Bobo, buvi, nabira, kuchuk, mushuk, sichqonlar bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishadi. Bu holat bolalarga katta zavq beradi. Ertak kichkintoylarda kuch birlikda degan tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi.

Ertakning uchinchi jihati shuki, u maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiatni sevishga, jonivorlarni asrash, avaylashga da'vat etadi. Kichkintoylar kuchuk, mushuk, hatto sichqonni ham' boqish, asrash-avaylash lozim ekanligini chuqurroq his qiladilar.

Bu yoshdagi bolalar hayvonlar o'rtasidagi o'zaro ahillik va do'stlik kabi xislatlarni bilishga juda qiziqadilar. Hayvonot olamida ham do'stga mehribonchilik, g'amxo'rlik mavjudligi „Arslon bilan it“, „Echki, qo'y va bo'rilar“ kabi ertaklar orqali beriladi. „Tuyaqush bilan qoplon“ ertagida hayvonlar o'rtasida bir-birlariga yordam berish, ayniqsa, boshlariga kulfat tushganda yurakdan, samimiy ko'maklashish g'oyasi yotadi.

Qoplonning boshiga musibat tushdi. Tomog'iga katta bir suyak qadalib qoldi. Dod-faryod qildi. Tuyaqush qoplonga yordamga kelib:

— Osmonga qarab og'zingni ochib tur, men suyakni olib qo'yay, — debdi qoplonga.

Qoplon osmonga qarab og'zini ochib turibdi. Tuyaqush uzun tumshug'ini qoplonning og'ziga solib, tiqilib qolgan suyakni sug'urib tashlabdi.

Qoplonning ko'zlari ravshan bo'lib, o'limdan qutulibdi.

Biroz orom olgandan keyin qoplon tuyaqushga qarab shunday debdi:

— Sen mard ekansan, menga yaxshilik qilding, endi ikkalamiz do'st bo'lamiz, zarur vaqtda bir-birimizga yordamga kelamiz, — debdi.

Tuyaqushga bu gap ma'qul bo'libdi. Tuyaqush bilan qoplon ikkalalari do'st bo'libdilar.

Xalqda, o'zga bilan do'st bo'ldingmi, bir umr bo'l, unga yaxshi-yomon kunlarida riyokorlik ko'rsatma, degan gap bor. Tuyaqush bu yo'ldan bormaydi. Oradan ko'p vaqt o'tadi. U jo'rttaga qoplonni sinamoqchi bo'lib, kunlardan bir kun:

— Voy dod, o'lyapman, qoplon, meni qutqar! — deya bor ovoz bilan qoplonni yordamga chaqiradi.

Qoplon chin so'zli, do'stga sadoqatli, g'amxo'r va mehribon bo'lganligi uchun zudlik bilan tuyaqushning oldiga „shox-butoqlar orasidan ustidagi junlari yulinib, harsillab yetib kelibdi". Lekin u tuyaqushning yuzida tabassumni ko'rib hayron bo'ladi. Tuyaqush surbetlik bilan „Ko'rmaganimga ancha vaqt bo'ldi, ahd-paymonimiz esingdan chiqib qolmadimi, deb seni sinab ko'rmoqchi edim", deydi. Bu gapdan qoplon qattiq ranjiydi, dili og'riydi, do'stidan ko'ngli qoladi.

Do'stni aldagan aslida o'zini aldaydi. Birovni bir marta aldadingmi, tamom, u senga boshqa ishonmaydi. Tuyaqush ham shunday bo'ladi. Bir kuni bo'ri uni ushlab oladi. Tuyaqush qancha baqirib-chaqirmasin, qoplon „Do'stim jo'rttaga dodlayapti", deb o'ylaydi va oldiga kelmaydi. Tuyaqush bo'riga yem bo'ladi.

Qo'li ochiq, saxiy bo'lish, do'stga sadoqat ko'rsatish bu davrda o'qiladigan ertaklarning asosiy mag'zini tashkil etishi kerak. „Tulki bilan Turna" ertagiga nazar tashlasak, bu holning butunlay teskarisini ko'ramiz. Dunyoda tulki zotidek mug'ambir, aldamchi, riyokor mavjudot bo'lmasa kerak. Ko'p ertaklarda turna insonga yaqin yuradi, unga ko'maklashadi, yordam beradi, saxiylikda ibrat ko'rsatadi.

Ertakda tulki va turnaning do'st tutingani haqida gap boradi. Maqtanchoq, mug'ambir, ayyor tulki oddiy, sodda turnani uyiga chaqirib:

— Albatta kelgin, jonginam, albatta, azizim, juda yaxshilab mehmon qilaman! — deydi.

Ba'zan yangi do'stning fe'l-atvori qanday ekanligini o'zi yaxshi bilmay yurakdagi borini oshkor etadigan bolalar kabi turna ham tulkiga ishonadi, chinakamiga meni mehmon qilar ekan-da, degan o'y-xayol bilan uning uyiga

keladi. Tulki shirguruch pishirib, turnaning oldiga taqsimchada qo'yadi. Turna uzun tumshug'i bilan taqsimchaga taq-taq uradi, ammo hech narsa yeya olmaydi. Ayyor tulki esa bir zumda shirguruchni o'zi yeb qo'yadi.

Ertakda turnaga alam qiladigan joyi shuki, tulki o'zi pishirgan taomni o'zi yeb tugatsa-da, xushomadgo'ylikdan qaytmaydi. „Aybga qo'ymaysan-da, jon do'stim! Yaxshilab mehmon qilishga boshqa narsa topa olmadim!“ deb surbetligini ochiq namoyish etadi. Bu esa bolalarning qahr-g'azabini keltiradi. Ertak hayotda tulki kabi ochko'z, aldamchi bo'lmaslikka da'vat etadi<sup>49</sup>.

Turna ham bo'sh kelmaydi. Tulkini uyiga chorlab, bo'yni ingichka xurmachaga o'zi tayyorlagan ovqatni qo'yib, uni bir zumdayoq uzun tumshug'i bilan o'zi yeb qo'yadi. Turnaning topqirligi kichkintoylarni xursand qiladi. Ularda qilmish qidirmish, birovga nima qilsang, albatta, o'zingga qaytadi, degan tushuncha paydo bo'ladi.

Xullas, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar o'zlari tinglagan ertaklari yordamida atrof-olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu, nima yomonligini bilish orqali ma'naviy dunyosi boyib, voyaga yetadilar.

Maktab yoshidagi kichik bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarda voqealar bola yoshiga monand bo'lishi nazarda tutiladi. Bu davr bolalari maktabga boradigan; o'zlari mustaqil ravishda ozmi-ko'pmi kitoblar o'qiydigan darajada bo'ladilar. Ularga o'qish uchun tavsiya etiladigan ertaklarning ham ko'p qismi ona-Vatan, tabiat, axloq-odob, mehnat, o'qish haqida bo'lishi talab etiladi. „Zumrad va Qimmat“, „Oltin tarvuz“, „Dehqon bilan ayiq“, „Haqqush“ (tojik xalq ertagi), „Danak“ (qirg'iz xalq ertagi), „Kuch va topqirlik“ (latish xalq ertagi), „O'tinchi yigit“, „Bo'ri bilan echki“ singari ertaklar kichik maktab yoshidagi bolalar sevib o'qiydigan asarlardir.

Bu yoshdagi bolalarga ko'proq ig'vo, g'iybat, munofiqlikdan yiroq bo'lgan ertaklar yoqadi. Negaki, chin, mukammal tarbiyali bola boshqalarga ozor yetkazmasligi, takabburlik qilmasligi, hech kimga past nazar bilan qaramasligi, rostgo'y bo'lishi lozimligini kichkintoylar avval tavsiya etilgan ertaklar orqali bilib

<sup>49</sup> Jo'rayev M. O'zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari // O'zbek tili va adabiyoti, 1996, №5.-B.30-36.

olishgan. Yaxshi bola o'zidan kattalarga hurmatli, kichiklarga shafqatli va marhamatli, kular yuzli, shirin so'zli, xushmuomala bo'lishi lozimligi ularga ma'lum. Chinakam inson va'dasiga vafo qiladi, omonatga xiyonat qilmaydi. Ig'vo, g'iybat, munofiqlikdan o'zini saqlaydi. Ota-onasining hurmatini bajo keltiradi. Qarindosh-urug'lariga mehribon, mehr-oqibatli bo'ladi. Yomon yo'llardan, yaramas ishlardan, nojo'ya harakatlardan o'zini saqlaydi. Mana shularga o'xshash go'zal xislatli bolalarni el sevadi, e'zozlaydi. „Zumrad bilan Qimmat“ ertagidagi Zumrad xuddi shunday fazilatlarga ega obrazlardan biridir.

Zumrad xalq orzu qilgan, e'zozlagan qizlarning yorqin timsoli. Bugungi qizaloqlar ertakdagi Zumraddan ibrat olishlari, unga o'xshagan chiroyli, odobli, muloyim, aqlli, mehnatsevar bo'lishlari lozim. Qarang, yo'lda lolalar, rang-barang gullar uni ko'rib boshlarini egib, salom berarkanlar. Zumrad maysalar ustida o'tirib dam olganida gullar uni olqishlar, bulbullar quvonib, qo'shiqlar aytib berar ekanlar. Xo'sh, bunday maqtov, bunday e'zoz qaysi qizaloqqa yoqmaydi! Hammaga yoqadi. Bunga muyassar bo'lish uchun esa, halol inson bo'lish, kattalarning, ota-onalarning, muallimlarning o'git-nasihatlariga qattiq amal qilish kerak. Ana o'shandagina xuddi Zumrad kabi mol-u davlatga, shon-sharafga, hurmatga sazovor bo'lish mumkin.

Zumrad aslida kim? U bir o'gay ona qo'lida so'kish, qarg'ish eshitib bir burda nonga muhtoj bo'lib yurgan qizcha. Zumrad el sevadigan darajada chiroyli, odobli, muloyim, aqlli. Uni bir ko'rgan, bir suhbatlashgan kishi yana ko'rsam, suhbatlashsam deb orzu qiladi.

Zumrad otasini, odamlarni yaxshi ko'radi, hayvonlarni, tabiatni, maysa-yu o'tloqni sevadi, ularni avaylaydi. Hammasiga muloyim boqib, qo'li bilan silab-siypalab erkalaydi. Bundan gullar, o't-o'lanlar, bulbullar quvonib, unga qo'shiqlar aytib berishadi.

Ammo shu gullar kampirning arzandasini sevmas, uni erkalamas ekanlar, bu qiz gullarga ozor berar, ularni yulib tashlab, tepkilar ekan, lolalar, gullar Qimmatning kelishini bilib qolsalar, qovoqlarini solib, yumilib qolarkanlar. Yovuz kampir bundan g'azablanar ekan va buni Zumraddan ko'rar ekan. Bir kuni kampirning niyati buzilib, Zumraddan qutulmoqchi bo'libdi, cholni chaqirib olib,

unga dag'dag'a qilibdi. „Qizingni o'rmonga olib borib adashtirib kelmasang, men sen bilan turmayman!" debdi.

Ota nochor. U kampirga o'ta itoatkor. Negaki kampir uni jerkib, haqorat qilib, yuragini olib qo'ygan, itoatkor kimsaga aylantirgan. Chol Zumradni aldab, qorong'i, qo'rqinchli o'rmonda adashtirib keladi. O'rmonda yolg'iz zor qaqshab qolgan qizchaga gullar shu'la sohib, yo'lini nurafshon qilib turadi. Zumrad sehrgar huzuriga kirar ekan, unga egilib salom beradi, boshidan kechirgan voqealarni bir-bir bayon qiladi. Qushlarning Zumradni maqtab sayrashlari kampir qalbini shodlikka to'ldiradi.

Zumrad mehnat bolasi. Mehnat qilgan elda aziz, deganlaridek, uning yelib-yugurib ishlashi kampirga xush yoqadi. „Oppoq qizim, shirin qizim, do'mbog'im, munchog'im!" deya uni erkalaydi, peshanasidan o'pib, sochini silaydi.

Zumrad halol-pokligi, shirin so'zligi, mehnatkashligi, kattani hurmat, kichikni e'zozlashi bilan sehrgarning muhabbatini qozonadi.

Shu sababli sehrgar Zumradni tengsiz boylik bilan siylaydi, uni baxtiyor qiladi.

Mehnatkash xalq o'z farzandlarini xuddi Zumrad kabi ishchan, mehribon, iboli, boy-badavlat bo'lishini orzu qilgan. Lekin Qimmat kabi erka, tantiq, ishyoqmaslarni yomon ko'rgan. Qimmat obrazi dangasa, erkatoy, injiq, qo'pol, toshbag'ir ayrim farzandlarni eslatadi. O'zbek ertaklarida o'zidan kattalarni hurmat qilish va keksalarni e'zozlash, odamoxunlik va mehnatsevarlik, yaxshi xulq va odobni ulug'lash asosiy masalalardan hisoblanadi. Xo'sh, Qimmatda yuqoridagi fazilatlardan qaysi biri mavjud? Hech qaysisi yo'q.

Mana, ota Qimmatni ham kimsasiz o'rmonda adashtirib, tashlab ketdi. Sehrgarnikida yashar ekan, unga onasi birorta ham shirin so'z o'rgatmaganligi, mehnat qilishni bilmaganligi sababli kampirga qo'pol-qo'rs muomalada bo'ladi. Tekintomoqligi qattiq pand beradi. Sehrgar qizni sevmaydi, ertak ham aytib bermaydi, kitob va qo'g'irchoqlar ham hadya qilmaydi.

Ertakdagi sehrgar kampir juda muloyim, mehribon. Mana, uning Qimmatga murojaati:

- Tomdan o'tin olib tush, qizim! Qizning javobini

eshiting:

- O'zingiz olib tusha qoling, malayingiz yo'q! Bu tarbiyasizlik, odobsizlikdan boshqa narsa emas. Xalq bunday o'zboshimcha qizni ham, farzandiga to'g'ri tarbiya bera olmagan onani ham yoqtirmaydi. Shuning uchun har ikkalasi o'limga mahkum — ajdar yutib yuboradi. Bu holga xalq aslo achinmaydi, aksincha to'g'ri bo'libdi, deb mamnun bo'ladi<sup>50</sup>.

Kitobxon bolalar ham hayotda Qimmat qiyofasiga tushib qolmaslik uchun odobli, xushmuomala bo'lishga, mehnatni sevishtga, ko'proq dars tayyorlashga, kitob o'qishga intilishga harakat qiladi. Qimmatning ishyoqmasligi, odobsizligi uchun hamma yomon ko'rishini eslang. Hatto uning yurish-turishi, xatti-harakati sehrigar kampirga ham ma'qul bo'lmaydi. Dangasaligi, kekkayganligi, qo'rs-qo'polligi o'zining boshiga yetadi.

Bu yoshdagi bolalar ko'chat ekish, uni parvarish qilishda kattalarga dastyor-ko'makchi. Ko'pincha, o'zlari ham bog'bonchilik ishlariga berilib ketishadi. „Danak“ ertagidagi Bahromning bir dona danakni yerga ekib, uni ko'kartirishi, u mevali daraxtga aylangunicha parvarish qilishi yosh kitobxonlarni ham ilhomlantiradi.

Bahromning danagi daraxtga aylanib, meva bera boshlagach, alvasti bolani yeb, daraxtga ega bo'lib olish niyatida uni qopga solib, uyiga olib ketibdi.

Alvasti hovlisiga yetib kelibdi-da, qopini supaga qo'yibdi, qozonga yog' solib, olov yoqibdi.

Bahrom qopni amallab teshib, oq terakning tepasiga chiqib olibdi. Alvasti kelib ko'rsa, bola yo'q.

— Bolaginam, qayerga ketding? — deb so'rabdi u.

— Men bu yerdaman! — Bahrom terakning ustidan ovoz beribdi.

— Bolajonim, u yerga qanday chiqding?

— Temirkurakni olovda qizdirib, ustiga o'tirdim. Kurak yuqoriga uchdi, qaragam, daraxt tepasida turibman, — debdi Bahrom.

<sup>50</sup> O'zbek xalq ijodi. O'zbek xalq ertaklari. Gulpari. —T.: Cho'lpon, 1969. —B.39.

Kampir Bahrom aytgandek qilgan ekan, kuyib o'libdi.

Bahrom shunday qilib, o'zini ham, daraxtni ham alvastidan qutqarib qolibdi.

O'rta va katta yoshdagi bolalarga o'qish uchun tavsiya etiladigan ertaklarda ertaklar endi bolani fikrlashga o'rgatadigan, mustaqil mulohaza qilishga da'vat etadigan bo'lishi lozim. Maktabgacha ta'lim va kichik maktab yoshidagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar yuqorida ko'rib o'tganimizdek, hajm jihatidan kichkina, mazmuni sodda va teranligidan tashqari rasm va bo'yoqlarga boy bo'lishi zarur. Bu ikki guruhga mansub o'quvchilarga tavsiya etiladigan ertaklar vositasida tabiat, ona-Vatan, hayvonot olami haqida, to'g'riso'z, odobli bo'lish, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e'zozlash singari ezgu tuyg'ular ularning ong-tushunchalariga yetkaziladi.

Bu yoshdagi bolalar uchun dovyuraklikka, vatanparvarlikka, yaxshi kasb-kor egasi bo'lish, xalq va Vatan uchun jon fido qilishga chorlovchi „Pahlavon Rustam“, „Uch og'a-ini botirlar“, „Egri bilan To'g'ri“, „Ona yer farzandi“, „Sardorning oyni ushlab olmoqchi bo'lgani“ (turk xalq ertagi), „Ilon terisini yopingan pahlavon“ (no'g'ay xalq ertagi), „Donishmand qiz“ (xitoy xalq ertagi), „Qadrdon uyingning mixi“ (shved xalq ertagi), „Chollar, ho'kizlar, Bo'rka va pop“ (gruzin xalq ertagi) singari ertaklarni tavsiya etish mumkin.

Ota-bobolarimizdan qolgan ibratomuz bir gap bor: yaxshi hayot kechirish insonning o'ziga bog'liq. U nechog'li to'g'riso'z, aqlli, tadbirli, pok ko'ngilli bo'lsa; do'stga, vatanga xiyonat qilmasa, yolg'on gapirmasa, topshirilgan ishni vaqtida bajarib, va'dasiga vafo qilsa, bunday zotni el yurakdan yaxshi ko'radi.

Kimki zolim va mutakabbir bo'lsa, bir kuni buning jazosini topadi. Tarixga nazar solsak, necha-necha zo'r davlat va qudratga ega bo'lgan kishilar vaqti kelib, ehtiyoj va zarurat girdobiga g'arq bo'lganiga, aksincha, umri yo'qchilik, kambag'alchilikda o'tgan odamlar halol mehnati, odamiyligi tufayli baxt, tolega yor bo'lib, boylik va davlatga ega bo'lganliklarini ko'ramiz.

Ha, bolalar uchun hayotda eng buyuk va sharafli yo'l bor. Bu yo'ldan aslo chiqmaslik va adashmaslik zarur. Bu yo'l insoniylik yo'lidir. Unga amal qilgan kishi hamisha baxt-u saodat sohibi bo'ladi. U odamlarga ma'naviy kuch-quvvat

beradi, kishini to'g'rilikka boshlaydi. Shuningdek, xalq baxt-saodati uchun yashash, yaxshilik qilish, kattalarning hurmatini joyiga qo'yish ham kishining insoniy burchidir.

Bizning bu fikrimizni „Egri bilan To'g'ri" ertagi orqali isbotlash mumkin. To'g'riboy halol, pok, yaxshi niyatli inson. U ro'zg'or tebratish, tirikchilikni o'nglash uchun mardikorlik qilishga majbur. Biron ish topish uchun safarga otlangan. Bisotida bitta oti bor, xolos.

Yo'lda tasodifan Egriboy bilan hamroh bo'lib qoladi. U oqko'ngil bo'lgani uchun uzoq yo'l mashaqqatini yangi hamroh bilan tortmoqchi bo'ladi. Sherigim charchadi. Otni navbat bilan minaylik. Bo'lmasa bu do'stlikdan emas, deb otni Egriboyga beradi. Ko'ngli qora, munofiq Egriboy esa otni olib qochadi. Donolar oltinning sofligi o'tda, insonning to'g'riligi omonatga xiyonat etmasligida, deb bekorga aytmagan ekanlar. Egriboy egriligini qilib do'stga xiyonat qiladi.

To'g'riboy yo'lda ko'p adashadi, tunda o'rmonda qolib ketadi, noiloj eski tandir ichiga kirib tunaydi. Kechasi o'rmon yirtqichlari tandir atrofiga to'planishib, asrlonshoh boshchiligida g'alati suhbat qurishadi. Tulki doston boshlaydi:

— Og'aynilar, men sizlarga aytsam, o'n yil bo'ldiki, o'rmon yoqasidagi g'orda yashayman. O'n yildan beri davlat yig'aman. Mendagi mol-dunyo hech kimda yo'q.

Navbat shaqalga keladi:

— O'rmonga tutashgan katta tepalik ostida yashayman. U yerda bir sichqonim bor, har kuni tush paytida inidan chiqadi, uni qirq bitta tillasi bor, shuni o'ynagani-o'ynagan. Tillani o'ynab-o'ynab, yana iniga olib kirib ketadi.

Ayiq uning so'zini bo'libdi:

— Bu ham uncha qiziq emas. O'rmonda bir tup sadaqayrag'och o'sadi. Qayrag'ochning pastida ikkita shoxchasi bor. Ana shu shoxlarning barglari hamma kasalga davo. Uni ezib ichilsa, har qanday jonivor o'sha zamonAQ dard ko'rmaganday bo'lib ketadi. Men bolalarimni shu bilan davolayman.

Uning orqasidan bo'ri tilga kiradi:

— Og'aynilar, bizning ham qiziq hikoyamiz bor, — deb gap boshlaydi u.  
 — O'rmon yoqasida o'n ming qo'y boqiladi. Har kuni ikkita bo'rdoqini yeyman, meni ushlash uchun cho'ponlar qopqon qo'yishadi, tuzoq solishadi, ammo pisand qilmayman. Lekin qirda Kimsan chol degan dehqonning bir kuchugi bor. Shu kuchukni cho'ponlar sotib olishsa bormi, sho'rim quriydi.

Yo'lbars unga qo'shimcha qiladi:

— Rost aytasan, qo'ylarga o'xshash o'n ming yilqi ham o'rmon atrofida o'tlab yuribdi. Men har kuni birini yeyman. Ular orasida bir ayg'iri bor. Kimki uni minsa va bir qo'lga qildan eshilgan kamon, bir qo'lga uzun gavron olib, meni quvsa, kamonni bo'ynimga solib, gavron bilan ursa bormi, bir umr yilqilar oldiga yo'lamas edim.

Tadbirkorlik, aql bilan ish ko'rgan To'g'riboy bu suhbatda eshitganlarini amalga oshiradi. Hatto yetti yil bemor yotgan shoh qizini davolab, malikaga uylanadi. U umr bo'yi ishlab, mehnat qilib, peshana teri to'kib tirikchilik o'tkazganligi sababli podshoning in'omidan voz kechadi:

— Menga beklik to'g'ri kelmaydi. Men sodda va to'g'ri odamman. O'rmon yoqasidagi tepalikdan bir uy qurishga ruxsat bersangiz bo'lgani. O'sha yerda dehqonchilik qilib, kun o'tkazaman, — deb javob beradi.

„Tog'-tog' bilan uchrashmaydi, odam odam bilan uchrashadi" deganlaridek, To'g'riboy o'rmon yoqasidan o'ziga imorat qurib, umr kechirib yurganida yomon xatti-harakati, yolg'onchiligi bilan uzoqqa borolmagan Egriboyga yana duch kelib qoladi. U Egriboyga turmushda nimagaki erishgan bo'lsa, o'sha tandir sababchi ekanligini gapirib beradi.

Ochko'z Egriboyning egriligi, aldanchiligi boshini yeydi, u tandir ichida yirtqichlarga yem bo'ladi.

Xullas, xalq og'zaki ijodi, ayniqsa, ertaklar bolalarni to'g'ri tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

## Xulosa

Biz mavzuni yoritish asnosida ertaklarning bir necha turlarga bo'linishini ko'rib chiqdik va tahlil qildik. O'rganganlarimizdan kelib chiqib fikrlarimizga xulosa yasasak. Barchaga tanish bo'lgan «Uch og'a-ini botirlar» ertagi misolida ba'zi mulohazalarimizni aytib o'tamiz. «Uch og'a-ini botirlar» ertagi turiga ko'ra maishiy ertaklarga kiradi. Ertakning voqealari juda qiziqarli bo'lib, tarbiyaviy ahamiyati ham kattadir. Qadim zamonda o'rtahol bir kishi bo'ladi. Uning uch o'g'li bo'ladi. o'g'illarini safarga kuzatib qo'yishdan oldin ularga shunday pand-nasihatlar qiladiki, biz bu pand-nasihatlardan ushbu kishining qanday odamligini osongina bilib olamiz. «o'zimdan keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar deb, sizlarni o'qitdim», — deydi u. Haqiqatan ham o'qigan odam dunyoni taniydi, oq-qoraning farqiga boradi. Ilmli va hunarli odam hech qachon xor bo'lmaydi.

Bu kishi o'g'illarini tarbiyalashda uch narsaga amal qiladi. Birinchidan, sog'lom qilib tarbiyalaydi, natijada o'g'illari baquvvat bo'lib o'sadi. Ikkinchidan, qurol-yarog' bilan tanishtiradi, natijada o'g'illari yarog' ishlatishga usta bo'lishadi. Uchinchidan, qo'rqitmay o'stiradi, natijada o'g'illari botir, dovyurak bo'lib voyaga yetishadi. Endi bularning ustiga ilmli ekanligini ham qo'shsak, ular naqadar barkamol yigitlar ekanligining guvohi bo'lamiz. Biroq ularning otasi bu bilan kifoyalanib qolmaydi. U o'g'illarini yanada mukammal bo'lishlarini istaydi. Shu sababli ularga yana uch narsani uqtiradi: «To'g'ri bo'ling — bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang — xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang — baxtsiz bo'lmaysiz». o'g'illari otalarining bu o'gitlariga amal qilganlari uchun ham barcha xatarlardan omon chiqdilar. Hatto podshoh o'zining uch qizini ularga berib, og'a-inilarni o'ziga kuyov qilib oldi. Endi ular saroyda qolib, aysh-ishrat qilib yotsalar ham bo'lardi. Podshohning o'zi ularga shuni taklif qiladi. Biroq og'a-inilar bunga rozi bo'lmaydilar. Ular barcha narsalarga o'z xalol mehnatlari orqali yetishishni istaydilar. Xullas, ushbu ertak o'quvchini botir, qo'rqmas bo'lishlikka, mehnatni sevishlikka, va albatta, xalol, bilimli bo'lishlikka undaydi.

Namangan bolalar folklori misolida ertaklarning poetikasini o'rganish, tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

Namangan bolalar ertaklari poetikasini ertaklarni qo'shiq janri bilan munosabati bo'yicha tekshirdik. Bolalar ertaklari orasida kam uchraydigan qo'shiqli ertaklarga Namangan bolalar ertaklari ichidan misollar topish mumkin.

Qo'shiqlar ertaklarga poetik go'zallik baxsh etadi, badiiyatini yana-da oshiradi, bolalarning estetik didini o'stiradi.

Ertaklar ayni kunlarda kattayu kichik barobar qiziqish bilan tomosha qiladigan mult'fil'mlarga zamin bo'lib xizmat qilmoqda: «Senimi, shoshmay tur, quyon!», «Tom va Jerri», «Oloviddinning sehrli chirog'i», «Qirol Sher», «Zumrad va Qimmat» va hokazolar ertaklar asosida yaratilganligini ta'kidlash lozim. Demak, ertaklar yangi-yangi shakllarda yashashni davom ettiradi.

Ertaklar azaldan xalqni, ayniqsa, yosh avlodni insonparvarlik, vatanga muhabbat, rostgo'ylik va halollik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik va kamtarlik ruhida tarbiyalab kelgan.

Deyarli barcha ertaklarning g'oyaviy yo'nalishi yagona maqsadga-mehnat ahlining buyuk va yorqin kelajak uchun olib borgan kurashlarini, intilish va orzularini aks ettirishga qaratilgan. Shuning uchun ertaklar hamisha yaxshilik va murodga yetishdan iborat umidbaxsh g'oya bilan yakun topadi.

Deyarli barcha ertaklarning g'oyaviy yo'nalishi yagona maqsadga-mehnat ahlining buyuk va yorqin kelajak uchun olib borgan kurashlarini, intilish va orzularini aks ettirishga qaratilgan. Shuning uchun ertaklar hamisha yaxshilik va murodga yetishdan iborat umidbaxsh g'oya bilan yakun topadi.

Ertaklar xalqning necha-necha ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribalarini umumlashtirgan holda uning ijtimoiy ongida, estetik didida, axloqiy qarashlarida, e'tiqodida kechgan o'sish-o'zgarishlarning badiiy tarixi sifatida ayricha ahamiyat kasb etgan. Shu bois hozir ham miriqib tinglanadi, sevilib o'qiladi, eng muhimi, navqiron avlodning ma'naviy-axloqiy kamol topishida beqiyos ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

«Ertaklar — yaxshilikka yetaklar» degan naql bor xalqimizda. Ular shunchaki ko'ngil ochish vositasi, ermak emas, balki ajoyib suhbatdosh, bizni faqat ezgulikka undovchi, zavq-shavq bag'ishlovchi ma'naviy manbadir.

Mavzuni o'rganish mobaynida ba'zi bir taklif va mulohazalar aytish joiz deb topildi:

- Hozirgi kunda respublika telekanallarida “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar”, “Ertakchi bolajonlar” kabi ertaklar targ'ibotiga doir ko'rsatuvlar namoyish qilinib kelinadi. Yaxshi bo'lardiki, bunday ko'rsatuvlar viloyatlar telekanallarida ham namoyish etilsa. Birinchidan, bu bilan viloyatdagi yosh avlodning ertak aytishga va eshitishga qiziqishi yanada kuchliroq bo'lar edi. Ikkinchidan, viloyatlarning turli joylaridagi ertaklarning variantlarini yig'ish imkoniyati bo'lar edi.
- Ertaklarni televizionlashtirish ishlarining salmog'ini yanada oshirish lozim.
- O'zbek xalq ertaklariga ishlangan turli ko'rgazmalar tashkil etish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. Bitiruv malakaviy ishi uchun nazariy asos bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.
- 1.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 31б.
- 1.3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 1.4. Каримов И. А. Жайхун соҳилидаги абадий шаҳар // Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 56 б.
- 1.5. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 439 b.
- 1.6. Каримов И. А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятининг шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. 19- жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 345 б.
- 1.7. Каримов И. А. Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир. – Т.: Ўқитувчи, 2011. – 144 б.
- 1.8. Каримов И. А. Бизнинг йўлимиз демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 312 б.
- 1.9. Каримов И. А. Мустақиллик – барча эзгу режа ва марраларимизнинг мустаҳкам мезонидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти И. А. Каримовнинг давлат мустақиллигининг 22 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи. Халқ сўзи. 2013 йил 2 сентябрь.
- 1.10. Каримов И. А. Амалга оширилаётган ислохотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти куриш – ёруғ келажакимизнинг асосий омилидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти И. А. Каримовнинг

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. O`zbekiston ovozi. 2013 йил 10 декабрь.

1.11. Каримов И. А. Тинчлик ва аҳиллик – мамлакатимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигимиз асосидир // Ўзбекистон Республикаси И.А.Каримовнинг 9- май “Хотира ва кадрлаш куни” муносабати билан сўзлаган нутқи. O`zbekiston ovozi 2014 йил 10 май.

1.12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори // Turkiston. 2014 йил 8 февраль.

## **II. Asosiy adabiyotlar**

- 2.1. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq ertaklarida sehrlı raqamlar. -Toshkent, Fan, 1991.-152 b.
- 2.2. Imomov K. O‘zbek xalq prozasi. –Т.: «Fan», 1981.-104 b.
- 2.3. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –Т.: 1999..
- 2.4. Imomov K. va b. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –Т.: 1990 yil.
- 2.5. Imomov K. O‘zbek xalq ertaklari \ O‘zbek folklorining epik janrlari. –Т.: Fan, 1981. –В.62-69.
- 2.6. Jahongirov G‘. Bolalar ertaklari. –Т.: Fan, 1972.
- 2.7. Jalolov G‘. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi. –Т.: Fan, 1964 yil.
- 2.8. Jalolov G‘. O‘zbek folklorida janrlararo munosabat. –Т.: Fan, 1979.
- 2.9. Afzalov M.O‘zbek xalq ertaklari haqida. –Т.: Fan, 1964.
- 2.10. Razzoqov H., Mirzaev T., Sobirov O., Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –Т.: O‘qituvchi, 1980. 320 b.
- 2.11. Sarimsoqov B. O‘zbek folklorining janrlar sostavi // O‘zbek folklori ocherklari. 1-tom. - Toshkent.: Fan, 1988.-В.63-84.
- 2.12. Chalpak yoqqan kun. O‘zbek xalq ertaklari. –Т.: Yulduzcha, 1987.-256 b.
- 2.13. Yusupov J. Xorazm ertagi va hayot haqiqati. –Т.: Fan, 1997.-127 b.
- 2.14. O‘zbek xalq ertaklari. 1-jild. –Т.: Sharq, 1995.-246 b.

- 2.15. O'zbek xalq ertaklari. 3 jildlik. – T.: O'qituvchi, 2013. 384 b.
- 2.16. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik, –T.: 1960.
- 2.17. Navoiy haqida xalq ertaklari // Qizil O'zbekiston, 1941, 1 may.
- 2.18. Xorazm ertaklari (nashrga tayyorlovchi: F.Abdullaev). –T.: Fan, 1961. – 190 b.
- 2.19. O'zbek xalq ijodi. O'zbek xalq ertaklari. Gulpari. –T.: Cho'lpon, 1969.
- 2.20. O'zbek xalq ertaklari. Ikki jildlik. 2-tom. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1964. – 516 b.
- 2.21. O'zbek xalq ertaklari. 1-tom. – Toshkent.: Sharq, 1995. -
- 2.22. Safarov O.O'zbek bolalar poetik folklori. Toshkent,1985 yil.
- 2.23. Husainova Z. Topishmoqli ertaklar // O'zbek folklori ocherklari. 2-jild. – Toshkent.: Fan, 1989.
- 2.24. Sulaymonov M.O'zbek xalq og'zaki ijodi. Ma'ruzalar matni, Namangan, 2001 yil.
- 2.25. Avazova Sh. Xalq ertaklari chashmasi // «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 2-son, 1990.
- 2.26. Imomov K.O'gay qiz tipidagi ertaklar // «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 3-son, 1997 yil.
- 2.27. Usmonova Z. Ertak-novellalarda konfilkt // «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 6-son, 1997.